

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**  
**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**TABIIY FANLAR FAKULTETI**

**IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYA KAFEDRASI**

**SAMARQAND VILOYATI AGRASANOAT MAJMUASI**  
**RIVOJLANISHISHNG AYRIM MUAMMOLARI**

**(Urgut tumani misolida) mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bajardi: «Geografiya» ta‘lim yo‘nalishi

bitiruvchi 4-kurs talabasi M.Meliyeva

**ILMIY RAHBAR:**  
**dots.N.X.Mamatqulov**

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o‘tdi.

\_\_\_\_\_sonli bayonnoma «\_\_»\_\_\_\_\_2013 yil

**Samarqand-2013**

## **MUNDARIJA**

### **Kirish**

### **I-BOB. URGUT TUMANI AGROSANOAT MAJMUALARI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.**

**1.1. Iqtisodiy geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari.**

**1.2 Aholisi va mehnat resurslari.**

**1.3 Transporti va tashqi aloqalari.**

### **II-BOB. URGUT TUMANI AGROSANOAT MAJMUALARI RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI.**

**2.1. Tumanda agrosanoatni rivojlanishining o'ziga xos jihatlari.**

**2.2. Yer fondi va undan foydalanish.**

**2.3. Qishloq xo'jalik atrmoqlar tarkibi va uning joylanishi.**

### **III-BOB. URGUT TUMANIDA AGROSANOAT MAJMUALARI RIVOJLANISHINING AYRIM MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.**

**3.1. Urgut tumanida agrosanoat majmualari rivojlanishining muammo va istiqbollari.**

**Xulosa.**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yixati.**

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** Mamlakatimiz agrosanoat majmualari rivojlanish jarayonlarini olib borilishidan maqsad, uning tarmoqlar tarkibini intensivlashtirishga yetishtirib berilayotgan mahsulotlarni shu yerning o'zida qayta ishlab chiqarishga katta e'tibor berilmoqda. Qishloq xo'jaligining istiqboli uchun va halq moddiy farovonligini oshirish ko'p jihatdan uni rivojlantirishga bog'liq. Bugungi kunda agrosanoatda iqtisodiy islohatlarni yanada chuqurlashtirishdan maqsad yerni haqiqiy dehqon, tadbirkor va ishbilarmonlar qo'liga topshirish qishloqlarda mulkdorlar safini shakillantirishdan iboratdir. Ma'lumki aholi sonining oshib borishi bevosita iste'mol munosabatlariga bo'lgan talabning oshishiga sabab bo'ladi. Bazar munosabatlari sharoitida aholini agrosanoat mahsulotlari bilan ta'minlash bozor talablari darajasida mahsulot yaratish, talab va taklifdan kelib chiqqan xolda yil davomida aholini ushbu mahsulotlar bilan ta'minlash uchun hududlar tabiiy sharoiti va imkoniyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish ahamiyatlidir.

**Mavzuning maqsad va vazifasi.** Malakaviy bitiruv ishining maqsadi rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqqan holda Urgut tumanida agrosanoat majmualarini rivojlantirish hamda uning hududiy tashkil etilganlik darajasini iqtisodiy geografik nuqtai nazardan ilmiy yondashgan holda o'rganib chiqishdan iboratdir. Tuman iqtisodiyotini rivojlantirishda agrosanoat majmualarini tarmoqlari, shu jumladan fermerchilikni o'rni, uni tashkil etish muammolari, kamchiliklari hamda yutuqlarini atroflicha o'rganishdan iboratdir.

Iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan agrosanoat majmualari va uning tarmoqlar tarkibi yil sayin rivojlanib, uning infrastrukturasini o'zgarib bormoqda. Qishloq xo'jaligi qadimiy tarmoqlardan biri bo'lib, uning tuprog'ida yetishtirilgan noz-ne'matlar, nafaqat respublikamizda balki, jahon bozorlarida ham o'z nufuziga egadir. Ushbu tarmoqni mintaqamiz hududlarida to'g'ri tashkil etish va rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizning ko'pgina viloyatlarida bo'lgani kabi Urgut tumanida ham agrosanoat majmualari tarmoqlari yaxshi rivojlangan bo'lib, bugungi kunda ushbu tarmoqni yanada rivojlantirish bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Ushbu maqsadga erishishda quydagi muhim vazifalarni hal yetishni talab qiladi.

Urgut tumanining iqtisodiy georafik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslarini iqtisodiy geografik jihatdan baholash. Tuman joylashuvining o'ziga xos xususiyatlari, uning Samarqand shahriga yaqinligi, davlat ahamiyatiga molik bo'lgan avtomobil va temiryo'l yo'llari o'tgan joyda, qo'lay geografik no'qtada joylashganligi bilan belgilanishi. Tuman qishloq xo'jaligi rivojlanishiga tabiiy geografik omillardan iqlim, suv, tuproq va boshqalarning ta'siri, aholi va mehnat resurslarining qishloq xo'jaligi rivojlanishidagi ta'siri, transport tarmoqlarining tumandagi ahamiyati, rivojlanish holati, uning tarmoqlardagi harakati shu bilan birga tashqi iqtisodiy aloqalariga e'tibor beriladi.

**Ishning vazifasi.** Tuman agrosanoat majmualari rivojlantirish istiqbollari va ularni xududlar va tarmoqlardagi holatini o'rganish va statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilib xulosalar berish, shu bilan birga dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarining joylashuv holatlarini tadbiq qilish hamda qishloq ho'jalikda fermerchilik o'rni va ahamiyati, uni tashkil etishda mavjud ayrim muammo va kamchiliklarni atroflicha tahlil qilishdan iborat bo'ladi. Ishda aholini qishloq xo'jalik mahsulotlariga shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish, ya'ni yangi ish o'rinlarini yaratish, ishlovchi korxonalarni tarmoqlar bo'yicha tashkil etish ularga moliyaviy-iqtisodiy jihatdan yordam ko'rsatish ichki is'temol bozorini sifatli raqobotbardosh mahsulotlar bilan to'ldirish, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotlar ishlab chiqarish va uni to'g'ri tashkil qilishdan iboratdir.

Urgut tumanida qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar, ya'ni iqtisodiy geografik o'rni, tabiiy sharoiti, resurslari, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, jumladan aholi va uning joylashuvi, mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, transport va tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rganish;

-Tumanda qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlanishining asosiy xususiyatlarini tadqiq etish, bunda yer fondi, undan foydalanish darajasini, mavjud yer resurslarining bugungi ahvolini o'rganish;

-Tumanda qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlanish xususiyatlarini, xo'jaliklar tizimida chuqurroq ilmiy jixatdan tadqiq etish va mahsulot yetishtirish xolatini o'rganish;

-Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini tuman hududlaridagi holatini aniqlash, ishlab chiqarish hajmini va uning barcha xo'jalik toyifalaridagi ahvolini iqtisodiy geografik jixatdan o'rganish;

-Urgut tumanida agrosanoat tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari mavjudligini asoslash, mavjud ayrim muammolarini hal etishga doir taklif va tavsiyalar berishdan iborat.

Ishning so'ngida o'rganilgan mavzu yuzasidan umumiy xulosalar chiqarish orqali ishning asosiy mazmuni va mohiyatini atroflicha bayon etgan holda ochib berishdan iborat. Ishda ilmiy adabiyotlar hamda tumanga oid statistik materiallarni tahlil qilish va o'rganish

## **I-BOB. URGUT TUMANI AGROSANOAT MAJMUALARI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**

### **1.1. Iqtisodiy geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari**

Urgut tumani Zarafshon va Qora tepa tog'larining shimoliy yon bag'rida joylashgan. Tuman hududining sharqiy janubiy qismlari Chaqilqolon va Qoratepa tog'lari adirda va qirlar bilan band. Shimoliy va markaziy qismlari past baland tekisliklar va bir qancha soylardan iborat. Tumanning ushbu xususiyatlari uning xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan tuman tog'lar bilan o'ralganiga qaramasdan keng hudud bo'ylab cho'zilganini uning iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga ijobiy tasir etgan.

Urgut tumani avalambor Samarqand shahriga yaqinligi katta o'zbek transport yo'li bo'ylab joylashganligini qo'shni Tojikiston respublikasi va viloyati bilan chegaralanganligining o'zi geografik jihatdan qulaylikni taminlasa ikkinchi tomonda Zarafshon daryosi va tog' soylarni imkoniyatlari hudud xo'jalik tarmoqlarining shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qilgan. Shu bilan birgalikda bu hududda xalqlarning o'ziga xos urf odatlari, an'analari ishbilarmonlari tadbirkarlari uning tarixiy taraqqiyoti jarayonining vujudga kelishi va tumanning iqtisodiy geografik jihatdan rivojlanishi muhim asos bo'lgan. Urgut Samarqand viloyati tarkibidan to'liq bo'lib u 1964 yil 31- dekabrda tashkil topgan. G'arbdan Tayloq tumani janubiy G'arbdan Samarqand shimoldan Bulung'ur janubdan Qashqadaryo viloyati sharqda Tojikiston respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni 1,12 ming km<sup>2</sup>. Aholisi 2012yil 1-yanvar hisobi bo'yicha 420065 kishi. Aholisinning zichligi 1km<sup>2</sup> 375,1kishini tashkil qiladi. Tumanda 10ta qishloq fuqorolar yig'ini 115 ta qishloqlar bor. Tuman markazi Urgut shahri bo'lib viloyat markazi bo'lgan Samarqand shahrigacha masofasi 35kmni tashkil qiladi.

**Tabiiy sharoitining xususiyatlari.** Yuqorida takidlab o'tilgandek Urgut tumani hududini Qoratepa, Chaqilqalon tog'lari va Zarafshon tog' tizmalari o'rab olgan. Bu yerda past baland tog' qirlari va tekisliklardan iborat. Tog' yon bag'rlari slanislari va ohaktoshli qoyalardan iborat. Daryo vodiylari tor va chuqur adirlari

g'ovak va bo'sh cho'kindi jinslardan tashkil topgan shu soylar uncha chuqur bo'lmagan keng vodiylar hosil qiladi. Chaqilqalon va Qoratepa tog'lari orasida Tahtaqoracha davoni (1675m) orqali katta O'zbek trakti o'tadi. Tog'lardagi paliozoy erasi yotqiziqlari qumtosh kristallashgan slanitts ohaktosh va marmar toshlardan tashkil topgan. Bundan tashqari Urgut tumani tog' oldi tekisliklarda ayniqsa Zarafshon daryosida yoqasida alivial tog' jinslari tarqalgan bo'lib ular shag'allardan iborat. Tog' oldi tekisliklari dengiz sathidan 700-800m balanda joylashgan. Asosan tog' jinslardan tuzilgan.

**Iqlimi.** Samarqand tumani boshqa tumanlari kabi Urgut tumani hududining asosiy dehqonchilik ekinlarining vigiativ rivojlantirishi uchun qulay bo'lgan issiqlik resurslariga ega bo'lib quyosh eritib turadigan vaqti 2500-3000 soatni tashkil qiladi. Urgut tumani iqlimi respublikamizning boshqa hududlari iqlimi kabi kontinental iqlimdir. Ushbu hudud iqlimini hosil bo'lishida Arktika va o'rta kengliklardan davriy ravishda kirib keladigan havo massalari qish oylarda katta rol o'ynaydi. Ushbu havo massalari qish oylardagi havo haroratining pasayishiga ob-havoni tez-tez o'zgarishiga va yog'n yogishiga sabab bo'ladi. Yilning issiq oylarida Turon tekisligining qizigan yuzasida havo massalarining bu yerga kirib kalishi havo haroratining ko'tarilib ketishiga olib keladi. Joyning relefi iqlimga katta tasir ko'rsatadi. Shu sababli Urgut tumanidagi tekislik hududining iqlimidan farq qiladi. Urgut tumanida yoz oylarida havoning o'rtacha harorati  $37-40^{\circ}\text{C}$  gacha ko'tariladi. Yoz oylarida havoning o'rtacha harorati yozda  $+25^{\circ}\text{C} + 26^{\circ}\text{C}$  ni tashkil qiladi. Tog'li hududlarda havo harorati yozda ahcha salqin bo'ladi. Qish oylarda Urgut tumanida havo harorati sancha salqin bo'ladi. Yanvar oyini o'rtacha harorati timanning tekislik qismida  $-0,2^{\circ}\text{C}$ , tog'li hududlarda  $-0,6^{\circ}\text{C}$  ni tashkil qiladi. Qishda havoning eng pastga tushishi  $-26^{\circ}\text{C}$  tashkil qiladi. Urgut tumanida atmosfera yog'inlari tekisliklardan tog'ga qarab o'zgarib boradi. Tumanning tekislik qismida tog'larga nisbatan yog'ingarchilik kam tushadi. Tumanning tog' oldi, hududlarida o'rtacha yillik yog'n miqdori 460mm o'rtacha balandlikdagi tog'larda esa 100-600mm, omonqo'tonda 800-1000mmgacha yog'n yog'adi.

**Ichki suvlari.** Urgut tumanning ichki suvlari Zarafshon daryosi, Darg'om kanali hamda Chaqilqolon va Qoratepa tog'laridan oqib turadigan soy va buloqlar suvidan iboratdir. Zarafshon daryosi Zarafshon tizmasida Machgoh muzligidan boshlanadi. U Ayniy qishlog'i yaqinida Fandoryo bilan birlashib Zarafshon nomini oladi. Zarafshon daryosi muz va qorlardan to'yinuvchi daryo hisoblanadi. Uning suvi yilning issiq davrida ko'payadi. Qishda uning suvi birmuncha kamayadi va o'rtacha suv sarfi  $30-35\text{m}^3/\text{s}$  sekundni tashkil qiladi. Daryoning o'rtacha yillik suv sarfi  $165\text{m}^3/\text{s}$  sekundni tashkil qiladi. Zarafshon daryosini ravotho'ja suv taqsimlanadi va darg'om kanaliga suv chiqariladi. Urgut tumani hududidagi bir qism yerlar Darg'om kanallaridan suv ilgari bu kanalning o'rtacha yillik suv sarfi  $70\text{m}^3/\text{s}$  tengdir. Tuman hududida tog'laradn oqib tushdigan bir qncha soylar mavjud. Ushbu soylar o'rta bahorda yomg'ir va qor suvlarining to'yinishlaridan hosil bo'ladi. Yozda soydan oqib tushadigan soy suvlari kamayadi. Soylar suv oqimini 50%i bahorga to'g'ri keladi . Urgut trumanidagi jami katta nsoylar. G'ussoy, Urgutsoy, Kamangarsoy, Omonqo'tonsoylar misol bo'la oladi. Ushbu soylarni suvlari yil davomida o'zgarib boradi . bu soylar bahor va yoz oylari boshlardasuv ko'p bo'ladi. Qish va kuz oylardasoy suvlari kamayadi. Omonqo'tonsoy suvining o'rtacha suv sarfi  $0,49\text{m}^3/\text{s}$  ni Urgutsoyning suv sarfi esa  $0,47\text{m}^3/\text{s}$  ni tashkil qiladi. Suv soylardan to'laqonli foydalanish maqsadida Omonqo'tonsoyda Qoratepa suv ombori qurilgan. Uning suv sig'imi  $24,5\text{mln m}^3$ ga teng aynan ushbu suv ombori ho'jaliklar yyerlarni yoz kuzda suv bilan taminlaydi. Yaniy har bir suv ombori mo'linaobot qishlogi yaqinda qurilgan mo'linaobod suv ombori hisoblanadi. Uning suv sig'imi  $0,5\text{ mln m}^3$ ga teng.

**Tuproq'i, o'simligi va tabiiy resurslari.** Urgut tumanida tuproqlar tekislikdan toqqa qarab o'zgarib boradi. Jumladan Qoratepa va Chaqilqolon tog'larining tog' oldi tekisliklarda tekis bo'z tuproqlar tarqalgan. Ushbu tuproqlarda chirindi qatlamli  $15-20\text{sm}$  ga teng. Bu tuproqlar tarqalgan hududlarnig asosiy qismi o'zlashtirilgan dehqonchilik bilan band. Tuman hududini past tog'li qismida to'q tusli bo'z tuproqlar tarqalgan bo'lib bu tuproqlar chirindiga ancha boyligi tufayli dehqonchilik ekinlari yetishtiriladi. Tumanda tog' qiyva qsim/m

yaniy dehqonchilik qilish qiyin bo'lgan yerlar lalmi ekinlar yetishtiriladi, bu yerda har hil o't va bo'talar mavjud bo'lib chorvachilik uchun qulaydir. Urgut tumanida ko'proq dasht tog' va yaylov o'simliklari tog' oldi tekisliklardan tog'ni tepa qismiga tomon o'zgarib boradi. Dasht o'simliklari tumanning tog'oldi tekisliklari uchun hos bo'lib bu yerda bug'doysiz har hil o'tlar o'sib yetadi. Tuman tog'li hududida archa ,terak, tol, va daraxtlardan tashkil topgan. O'rmonlarning asosiy o'rmini egallaydi. Tog' yon bag'rlari va soylarda mevali daraxtlar va yong'oqzorlar bodom o'sadi. Urgut tumani halq ho'jaligi rivojlantirishda tabiiy resurslarning o'rni va ahamiyati kattadir. Ularning ichida miniral hom ashyo resurslari muhimdir. Miniral xom ashyo rasusrlariga boy har qanday hyudud ishlab chiqarishni har nqanday turmish rivojlanishiga hizmat qiladi. Urgut tumanida ham halq ho'jaligida keng qo'llanilgan ayrim resurslarga egadir. Tuman hududida keng tarqalgan marmar,granit, ohaktosh, qumtosh, shag'al va boshqa qurilish bob resurslar mavjud. Bugungi kunda ushbu resurslardan keng qo'lanilib kelinmoqda vajoylarda uni qayta ishlash korhonalari tashkil qilinib aholi shu mahsulotlarga butun ehtiyojni qondirib kelmoqda. Urgut tumani regratsiya resurslariga boy tumanlardan biridir . Bu yerda ming yoshga kirgan chino , shifobahsh buloqlar , tabiiy g'orlar o'zgacha manzaraga ega bo'lgan joylar borki bu yerga kelgan har bir inson qalbiga va ruhiyatiga ijobiy tasir etib uningbutun tanasiga yengillik berib , albatta manashunday hushmanzara joylarni avaylab asrash unga etiborliiy bo'lish kelajak uchun asrash bu maqsaddan turizm sohasida koproq foydalanishni yolga qo'yish har birimiz uchun ham farz ham qarzdir.

## **1.2 Aholisi va mehnat resurslari**

Biror hududning ishtimoiy geografik rivijlanishi uchun aholi soni uning tarkibi dinamikasi bilan uzviy bog'liqdir. Binobarin , aholi asosiy ishlab chiqaruvchi kuch bo'lishi bilan birga u yaratilgan moddiy nematlarning istemolchisihamdir. Shu sababli ishtimoiy bo'g'inning markazida aholi turadi. Urgut tumani aholisining o'sish suratlari va giologik hususiyatlarga ko'ra Samarqand viloyatining oziga hos tumanlardan biridir. Chunki tuman relef hususiyatlarga ko'ra tog' tog'oldi va

tekisliklarga bo'linadi. Aynan aholi ushbu hududda. Ushbu hududda qadimdan yashab kelmoqda. Relaf jihatdan qiyin bo'lgan tog'li hududdlarda ham aholi zich joylashgan va bugungi kunda uning zinchligi oshib bormoqda. Tuman hududida aholi qadimdan dehqonchilki va chorvachilik va hunarmanchilik bilan shug'ullanib kelmoqda shu bilan birga soylardagi suvlarni ko'pligi, iqlimni qulayligi, yog'n sochini ko'pligi hamdaq unimdor tuproq aynan bu aholini o'troq bo;lib yashashga zamin yaratgan. Viloyatni biror tumanida urguychalik hunarmanchilik ,savdo sotiq rivojlanmagan. Bu esa tumanda qayta ishlash sanoat tarmoqlarini tashkil bo'lishini shu bilan birga aholini ish bilan taminlashga katta ahamiyatga egadir.tumanning aholi joylashuvda istemolchi toki qyta ishlab chiqarish aloqa yo'llariga nisbatan aholi soni mehnat resurslarini huydudlar bo;ycha rivojlanishiga keltirib chiqaradi. Urgut tumani viloyatni muhum ishlab chiqarish markzlaridan biri hisoblanadi, shuning uchun tuman aholisi viloyatda yuqori o'rinda turadi. Hozirga kelib tuman aholisi tez o'sib bormoqda, shu sababli aholini soni va zinchligi yuqori o'rinda turadi 2012-yil 1-yanvar holatiga ko'ra o'ganilayotga hududda aholi msoni 420000kishini tashkil qiladi. Shundan 182,1ming kishi yoki 43% kishini shahar aholisini tashkil qiladi. Qishloq aholisi esa 238000 kishini toki 57% ni tashkil qiladi. Tumanda erkaklar soni 211,1ming kishini yoki 50,3%ni ayollar esa 209000ming kishini yoki 49,7% ni tashkil qiladi. Tumanda jami aholini mehnatga layoqatliylar soni 211,8 ming kishini yoki 50,4% ni tashkil qiladi, shundan 107,3mingni yoki 50,7% ni ayollar tashkil etadi, tumanda kichik tadbirkorlar subektlarda aholi bantlik soni 130,5 ming kishini yoki bank aholining 61,6% ni tashkil qiladi. Kichik tadbirkorlik subektlarida band aholinning 2,6ming yoki 2% zi kichik korhonalarda , 17,5ming yoki 13,4% mikro fermalarda va qolganiesha boshqa subektlardagi band aholini tashkil qiladi. Tumanda 2011-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 398,3ming kishi bo'lgan bo'lsa, shuni 61,7ming kishi urgut shahrida 20,5 ming Jartepa shaharchasida, 9,3ming Kamongaron shaharchasida 27ming, G'os 3,17 ming, Navoi 20,1ming Ispanza 28,16, O'ramas,va 4,7 ming, Kenagash shharchalarda yashaydi.Tuman bo'ycha 2011-yilda jami aholini 15,5%ni urgutda shahrida 28,6% ko'rsatib aytilgan joylarda

yashaydi . urgut tuman Samarqand tumani sug'oriladigan hududda joylashgani sababli, aholini tabiiy ko'payishi ham yuqori. Aholi o'sish bosqichlarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki tuman aholisi soni o'sib borishi yildan-yilga farq qilib ko'payib bormoqda. Bu ko'rsatgichlarni o'tacha yillik o'sish sifatida ko'rsatadigan bo'lsak, tuman aholisi yiliga o'rtacha 10ming kishiga ko'payib bormoqda. Aholini o'sib borishi biologic jarayon bo'lib, bunda tabiiy harakat yaniy tug'ulish va o'lim darajasiga bog'liqdir, shu bilan birga aholi soni qayta ko'payishda ishtimoiy sharoitlar katta tasir ko'rsatadi, aholini o'sishida uning yashash sharoiti qulayligi ayollarni jamiyatda tutgan o'rnini, iqtisodiy jihatda mukammallashganligi va hududni rivojlanish darajasiga ega. Urgut tumani demografik rivojlanishi suratlari yaniy aholi sonini o'sishi o'rtacha bo'lgan tumanlardan yuqori turadi. Bu tumanda 2003-2012-yillarda aholi soni 146%ga o'sgan. Bu jihatdan shahar aholisi qishloq aholisiga nisbatan kam o'sgan. Urgut shahri aholisini o'sishiga qishloqlardan aholi ko'chib borishi katta ahamiyatga ega. Qishloqlarda aholi soni o'sishi shaharga nisbatan bir qancha yuqori bo'lsada, biroq keying yillarda bu joylarda ham aholi soni sekin o'smoqda. Bunga asosan tug'ulishning kamayishi, yaniy ilgari o'ldirilgan o'rtacha 6ta-8ta farzand bo'lgan bo'lsa hozirda aksariyat honadonlarda 2ta-4tagacha farzand ko'rish tasir etmoqda, shu bilan birga ko'pchilik yoshlarni yaniy o'rta hisobda 17-28yoshgacha bo'lgan yoshlarni chetga uzoq muddatga ishga ketishi, bunda eng kam vaqt 1yilda to 5-6yilgacha bolgan davr ham tug'ulishni pasayishiga salbiy tasir etmoqda,

#### **Urgut tumani aholisining o'sishi.**

1- jadval

| yillar | Jami aholi soni (ming kishi) | Shu jumladan          |           |                      |           |
|--------|------------------------------|-----------------------|-----------|----------------------|-----------|
|        |                              | Erkaklar (ming kishi) | %hisobida | ayollar (ming kishi) | %hisobida |
| 2007   | 37,4                         | 184,4                 | 49,1      | 190,7                | 50,9      |

|      |       |       |      |       |      |
|------|-------|-------|------|-------|------|
| 2008 | 383,1 | 188,1 | 49,1 | 195,0 | 50,9 |
| 2009 | 391,0 | 192,4 | 49,2 | 198,6 | 50,8 |
| 2010 | 402,2 | 199,7 | 49,6 | 202,5 | 50,4 |
| 2011 | 410,0 | 205,7 | 50,2 | 204,3 | 49,8 |
| 2012 | 420,0 | 211,1 | 50,3 | 209,0 | 49,7 |

Ushbu jadvaldan malumki tuman aholisi sonida erkaklar va ayollar o'rtasidagi tafovudlar 2007-2010-yillarda ayollarning soni ko'pligi saqlanib qolgan. Masalan 2007-yilda jami aholi soniga nisbatan erkaklar 49,1%ni , ayollar esa 50,9%ni tashkil qilgan bo'lsa bu ko'rsatgich 2010-yilga kelib 49,6%dan 50,4%ga o'zgarib borgan.

Tunanda 2011-yildan boshlab erkaklar soning ayollar soniga nisbatan kopayganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu yilda erakalar jami aholini 50,2%ni ayollar esa 49,8%ni tashkil qilmoqda 2012-yilda esa bu ko'rsatgichda tumanda erkaklar soni 50,3%ni ayollar esa 49,7%ni tashkil qildi, bu jadvaldan ko'rinib tiribdiki urgut tunanida aholi sonida erkaklar va ayollar o'rtasidagi nisbat keying ikki yilda o'zgarganligi va bunda erakkalar sonini ko'rishimiz mumkin.

Tunanning tabiiy harakatidan keyin birmuncha sijishlar bo'lmoqda aholi soni o'sishda tabiiy ko'payish muhim ahamiyatga egadir. Tabiiy ko'payish ko'rsatgichlari yuqori bo'lishi aholi sonini tez o'sishiga olib keladi. Bunday holat albatta tug'ulish va o'lim korsatgichlariga bog'liqdir.

### **Urgut tumaniaholisining tabiiy harakati.**

(har ming kishiga nisbatan)

2-Jadval

| Jami                  | Tug'ulish |      |      | O'lim |      |      | Tabiiy kopayish |      |      |
|-----------------------|-----------|------|------|-------|------|------|-----------------|------|------|
|                       | 2009      | 2010 | 2011 | 2009  | 2010 | 2011 | 2009            | 2010 | 2011 |
| Urgut tumani bo'yicha | 27,0      | 21,2 | 10,8 | 3,6   | 3,3  | 1,7  | 23,4            | 17,9 | 9,1  |

Ushbu jadval tahlil shuni ko'rsatadiki Urgut tumanida 2009-y tug'ulish har 1000 kishi hisobiga 27%ni , o'lim esa 3,6%ni tabiiy ko'payish 23,4%ni tashkil qilgan. Ushbu yilda aholi o'rtasida tug'ulishning koplighi o'lim darajasini koplighi bilan belgilanadi. 2010-yil tug'ulish 21,2%ni o'lim esa 3,3%ni tabiiy kopayish 17,9%ni tashkil qilgan, ushbu yildan tumanda tug'ulishni pasayishi kuzatilgan. Bu jarayon 2011yildan boshlab yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Ushbu o'rganilayotgan yilda tumanda tug'ulish 10,8%ni yoki 2009-y ga nisbatan 16,2%ga kamayib ketganini ko'rishimiz mumkin. O'z navbatida tug'ulishni kamayishi o'lim 1,7%gacha tushishiga olib keldi, tabiiy ko'payish esa 9,1%ni tashkil qildi. O'lim darajasini kamayib borishi o'z navbatida hududda mididsina sharoitlarini yahshilanishi, aholi turmush sharoitlarini o'zgarishi hamda ona va bola salomatligiga davlat darajasida etibor berilayotganligi sabab bo'lmoqda. Tuman aholisini milliy tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak bu yerda to'zbeklar tuman aholisini 86%ni tashkil qiladi undan tashqari boshqa millat vakillari ham mavjud. Aholini o'sish vauning tabiiy hamda mehanik harakati natijasida joylarning demografik sig'imi o'zgarib boradi bu eng avvalo zinchlik ko'rsatkichlarda o'z asksini topadi. Malumki aholi tabiiy sharoiti qadimda qulayobikor dehqonchilik hududlarda zinch joylashib kelgan. Urgut tunani ham viloyatda aholisi zinch joylashgan tumanlardan biri hisoblanadi, tog' va tog' oldi hududlarda urgut shahri, g'uz kabi qishloqlara zinchlik anch yuqori shu bilan birga sug'oriladigan yerlarda buni ko'rish mumkin.hozirda urgut tumanida 1km<sup>2</sup> maydonga 375,1kishi to'g'ri kelmoqda bu yerlarda asosan aholi asosan hunarmandchilik, savdogarlik bilan,

sug'oriladigan yerlarda dehqonchilik va chorvachilik bilan band. Demak tumanda qishloq ho'jaligida yerdan unimli foydalanish va rivojlanish talab qiladi.

Mehnat resurslari deganda aholining o'z ijtimoiy va ma'rifiy imkoniyatlariga ko'ra ishlab, mehnat ega bo'lgan kishi tushuniladi. Aholining mehnatga yaroqli bo'lgan qismiga 16 yoshdan 59 oshgacha bo'lgalar kiradi. Samarqand viloyati mehnat resurslari, mehnatga yaroqli bo'lgalar yetarli darajada bo'lib, shu jumladan Urgut tumanida ham aholining mehnat resurslari bilan ta'minlangan darajasi hisoblanadi. Mehnat resurslari shu bilan ta'minlashda asosan, qishloq ho'jaligi tarmoqlari, fermerlar sanoat tarmoqlari, sog'liqni saqlash, maorif, madaniyat, savdo-sotiq qilishi, kichik va o'rta tadbirkorlik kabi bir necha boshqa korxonalarning odatda aholining mehnat faoliyati munosabatiga ko'ra uch guruhga bo'linadi.

1. mehnat yoshida bo'lgan bolalar va o'smirlar.
2. Mahnat qilayotgan mehnat resurslari.
3. Mehnat yoshidan o'tgan odamlar.

Tumanda aholining turli sohalarida bandligi yillar bo'yicha yaqqol o'sib bormoqda. Tumanda mehnatga yaroqliy aholining soni oshib borishi bilan birga ularni band bo'lishiga ham etibor berilmoqda. Tumanda mehnat resurslari 2009 yilda 201,2 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatgich 2011yil 212,7 ming kishini tashkil qilgan edi o'sish 2011yilda 2009 yilga nisbatan 11,5mingtani tashkil qiladi, tumanda mehnatga yaroqli yoshlar esa 2009 yilda 199,3 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa bu ko'rsatgich 2011yilda 211,8 mingtaga yetgan yoshlar 12,3 ming kishiga ko'paygan. 2011yilda jismoniy faol aholi ya'ni ishchi kuchi 10,1 ming kishiga yetgan. Tumanda 2012 yil 1-yanvar hisobi bo'yicha mehnatga yaroqlilar 211,8 ming kishini tashkil qilgan ular o'rtacha band bo'lgan 146 mingtasi 68,9 foizni tashkil qilmoqda. Xususiyy tadbirkorlik subektlarda esa 130,5 ming kishi banddir. Jami subyektlar band aholisidan yarmi ular 89,4 foizni tashkil qilmoqda. Shundan ajralib turadiki, urgut tumani keyingi yillarda xususiyy tadbirkorlikni rivojlantirishga katta etibor qaratilmoqda bu o'z navbatida shu korxonalarda

aholi bandlik darajasini oshishga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa 2011-yil "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinishida ham tumanda bandlik darajasini oshishga sabab bo'lgan. Mahsulotlarni qayta ishlashga e'tibor berish korhon va o'rta sanoat korxonalari ochishga sabab bo'ldi. Tumanda aholi mehnat resurslari bilan to'liq ta'minlash maqsadida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim.

-Mahsulotlarda maxalliy hunarmandchilikni kengaytirish va shu asosda faoliyat yuritish va tadbirkorlikka keng e'tibor berish;

-Qishloq xo'jaligida qayta yetishtirilgan mahsulotlarni shu joylarda qayta ishlash sanoat korxonalari qurish;

-Qishloq aholisini ish bilan ta'minlashda mahsulotlar kichik va o'rta korxonalarni qurish oilaviy biznesni rivojlantirishga e'tibor qaratish;

-Qishloq jabhalarida yerik sanoat korxonalari shaxobchalarini qurish;

-Aholi madaniy va maishiy xizmat turlariga bo'lga talabi va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ularni shakillantirishga ayollarni bandlik darajasini oshirishga e'tibor berish.

### **1.3 Transporti va tashqi aloqalari**

Urgut tumani iqtisodiy geografik jihatdan qulay hudud hisoblangani bois, uning rivojlanish sharoitida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy sharoitdan olib qaraganda tuman avvalambor Zarafshon daryosining yo'qori oqimida iqlimiy xususiyatlari jihatidan esa yog'ingarchiligi yo'qori kuchli, suvga va namgarchilik darajasi yaxshiligi muximdir. Shu bilan birga tog'li hududlarda dehqonchilikni tarmoqlarini rivojlantirish bilan birga tog'li hududlarda chorvachilikni ayniqsa qoramolchilikni o'rni yuqoridir. Aynan yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash uni ishlab chiqarish va istemolchilarga o'z vaqtida yetkazib berishda transport tarmoqlarining o'rni va ahamiyati bilan belgilanadi. Urgut tumanida sovda-sotiq va hunarmandchilikni rivojlantirishning sababi bu hudud transport turlarining ahamiyatini oshirish borasida undan unumli foydalanishga olib keladi. Ayniqsa

Urgutni boglovchi yullar Samarqand shaxriga yaqinida utgan uzbek traktini axmiyati katta bo'lib, savdo sotiq ishlarida, Samarqand, Tayloq, Bulung'ur, Jomboy tumanlari hamda Qashqadaryo viloyati bilan boglangandir. Tuman xududini bog'lab turuvchi Samarqand-Qashqadaryo avtomobil yullarining axamiyati uning rivojlanishida bu yerda ishlab chiqarilgan maxsulotlarni o'z vaqtida istimolchilarga yetgazish muximdir. Tumanda yetishtirilgan maxsulotlarni qayta ishlash korxonalari va istimolchilarga yetgazib yerishda, hamda axolini manzillariga yetkazishda avtomobil yulovchi tashiish transporti yaxshi tashkil qilingan bulib, Samarqand shaxi, tumanlar va Qashqadaryo viloyati yunalishi buyicha avtobus va shaxsiy avtomobillar qatnomoqda. Tumanda 2011 yilda transport korxonalarining soni 21 ta bulib, shundan 1 tasi katta, 12 tasi kichik va qolgan 8 tasi mikrofirmalar hisoblanadi. Ushbu yilda yuklarni avtomomobillar orqali tashish 79,4 ming tonnani, yuk aylanmasi esa 2568,8 tonna kmni, yulovchilarni avtobusda va taksilar billan tashish 480 ming yulovchi, yulovchi aylanmasi esa 3878,0 ming yulovchi kmni tashkil qildi. Ushbu yilda transport xizmatlarida jami 28540 so'mlik ish bajarilgan bulib, utgan 2010 yilga nisbatan 117,7 foizga usganligini kurish mumkin. Tuman transportini rivojlantirishda ayrim muammolar xam mavjud. Ulardan birinchisi Urgut-Samarqand yullarnining uta darajada sifatsizligi, tamirlanishning yillar davomida susayib borayotganligi, aholi va yuk tashishida qiyinchiliklar vaqt va masofani ortga sijishiga sabab bulmoqda. Tayyorlangan maxsulotlarning uz vaqtida istimolchi yoki ishlab chiqarishga yetkazishga jiddiy ta'sir etmoqda. Shu bilan yulovchi tashishdagi tirbantliklar, Urgut shaxri va tumaninig yerik qishloq va shaxarlari bilan, hamda Samarqand shaxriga qaytuvchi avtobuslvrni juda kamligi yoki yukligi, shaxsiy transport tarmoqlarining klometr xisobiga ancha yukori narxda yulovchilarni tashiyotganliklarini ko'rsatib utish urinlidir. Ushbu muammolar hal qilinmas ekan transport xizmatida o'sish bo'lmaydi.

### **III BOB URGUT TUMANI AGROSANOAT MAJMUALARI**

#### **RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI**

##### **2.1. Tumanda agrosanoatni rivojlanishining o'ziga xos jihatlari**

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Aholi iste'mol qiladigan mahsulotlarning 95-97 foizi aynan shu sohada etishtiriladi. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi rivojlanish jarayonlarinig olib borish, unda tarmoqlar tarkibini intensivlashtirishga etkizib berilayotgan mahsulotlarni yerning o'zida qayta ishlab chiqarishga katta e'tibor berilmoqda.

Bugungi kunda aholining 60 foizidan ortiq qismini qishloq joylarida istiqomat qilishini inobatga olayotgan bo'lsak, qishloq xo'jaligi sohasini yanada rivojlantirishni talab etadi. Qishloq joylarida sanoat tarmoqlarini ko'paytirish, etishtirilayotgan mahsulotlarni shu erni o'zida qayta ishlashga e'tibor berish, kichik biznes va tadbirkorlikni ushbu soha negizida ko'proq tashkil etish orqali, qishloq joylarida yangi ish o'rinlarini ko'paytirish va aholi bandligi darajasini oshirishiga olib keladi. Qishloq xo'jaligida borilayotgan keng ko'lamnagi islohotlarni asosini mamlakat prezidenti tomonidan qabul qilinayotgan farmon va qonunlarning o'rni benihoyat kattadir. Shu sababli o'tgan 21 yil davomida qishloq xo'jaligida tub o'zgarishlar bo'lib o'tishi bilan birga, uning har bir tarmog'idan mo'l hosil olishga, joylarda tayyor mahsulot ishlab chiqarishga erishilmoqda. O'zbek halqining qadim tarixdan yuqori dehqonchilik madaniyati, qishloqlarda umuminsoniy g'oyalarning ustunligi, yer, suv, mehnatga bo'lgan munosabatlarning xizmat darajasining ko'tarilganligi, agrar islohotlarning ya'nada rivojlanishini taqozo etadi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni ya'nada chuqurlashtirishdan maqsad yerlarni haqiqiy dehqon, tadbirkor, ishbilarmonlar qo'lga topshirish, qishloqlarda mulkdor sinfni shakllantirishdan iboratdir.

Respublikamizning barcha xududlarida bo'lgani kabi Samarqand viloyatida ham agrosanoat majmualarini rivojlantirishga, joylarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga katta e'tibor berilmoqda.

Samarqand viloyati va uning tumanlarida ham ushbu sohani tubdan o'zgartirish va ishlab chiqarishni jadal sura'tlar bilan olib borish, maxsulotlarni sifat va miqdor jihatdan oshirishga qaratilgan katta ishlar olib borilmoqda. Qishloq xo'jaligi ixtisoslashtirilishini ta'minlash va mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish va rivojlantirishda har bir hududning tabiiy sharoiti, yer, suv, tuproq kabi resurslari hamda resurslari bilan bog'liq.

Samarqand viloyati iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishida tumanlarning ahamiyati kattadir. Har bir tuman o'zining tabiiy sharoiti va joylashuvidan kelib chiqqan holda, qishloq xo'jaligi tarmoqlariga ixtisoslashgan bo'lib, uni har tomonlama turlanishiga jiddiy jiddiy e'tibor bermokda. Urgut tumani rivojlanishi va istiqbolini milliy asoslashda, tabiiy sharoit, tabiiy boyliklari bilan barcha qatorda ijtimoiy iqtisodiy, hamda xo'jalik tarmoqlarning ahamiyati nihoyatda muhimdir. Bularga tumaning iste'mol va qayta ishlash tarmoqlariga bo'lgan munosabati, sanoat majmualarining joylashuvi bilan belgilanadi. Shularni inobatga olgan xolda tumanda agrosanoat tarmoqlarini rivojlantirishda qishloq xo'jaligi tarmoqlarining joylashganligi, ularni hududlar bo'yicha taqsimlanishi, joylarda mahsulot yetishtirishva uni qayta ishlashdan imkoniyatlarni o'rganib, kerakli statistik materiallar asosida chuqur tahlil qilib chiqish maqsadga muvofiqdir.

## **2.2. Yer fondi va undan foydalanish**

Yer har bir tuman qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Chunki qishloq xo'jaligida yer moddiy boyliklar yaratilishidagi ahamiyati muhimdir. Tuman qishloq xo'jalik tarmoqlarining munosib rivojlanib ularni hududiy to'g'ri tashkil qilish, mavjud yer resurslardan to'g'ri va oqilona foydalanishga va ishlab chiqarishni intensiv texnologiya asosida olib borishga bog'liqdir. Aholi sonini oshib borishi barobarida, uni iste'mol mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji ham oshib boraverdi, bunday mahsulotlarni katta qismini yetishtirishuchun albatta unumli yer kerak bo'ladi. Shu bilan birga aholini o'zini

uy joy bilan ta'minlash esa mavjud yer resurslariga, sug'orilib dehqonchilik qilish imkoniyati zarur bo'ladi.

Urgut tumani statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra 2012 yil 1-yanvar holatiga ko'ra tumanning umumiy yer maydoni 112028 gektar bo'lib shundan 74372 gektari yoki 66,4 foizi qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlardan, 7840 gektari yoki 7,0 foizi tomarqa yerlaridan, 406 gektari yoki 0,4 foizi meliorativ yerlardan, 2033 gektari yoki 1,8 foizi o'rmonlardan va qolgan 27377 gektar yoki 24,4 foizi esa boshqa yerlardan iboratdir. Urgut tumanida qishloq xo'jaligida foydalaniladigan 74372 gektar yerning 27,6 foizi ekin ekiladigan yerlardan iborat bo'lib jami 20503 gektarni tashkil qilmoqda. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning qolgan qismini yaylovlar 46055 gektar yoki 62 foiz, ko'p yillik daraxtlar 7754 gektar yoki 10,4 foizi va bo'z yerlar 60 gektar yoki 0,2 foizni tashkil qilmoqda. Tumanda jami ekin yerlarining 16461 gektari 80,3 foizini sug'oriladigan yerlar qolgan 4042 gektari yoki 19,7 foizini esa lalmi yerlar tashkil qilmoqda. Tumanda mavjud 7754 gektar ko'p yillik daraxtlarning 6235 gektarini yoki 80,4 foizni uzumzorlar, 469 gektari yoki 6 foizni bog'lar va 1050 gektarini yoki 13,6 foizini esa tutzorlar tashkil qilmoqda.

Aholini ehtiyoji uchun oziq-ovqat mahsulotlari etishtiradigan tarmoqlarning ekin maydonlarini kengaytirish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Urgut tumanida yildan-yilga aholi sonini oshib borish hisobiga, qishloq xo'jaligida haydalaniladigan yer maydonlarining qisqarib borishiga sabab bo'lmoqda. Chunki aholini uy-joy bilan ta'minlash, tomarqa uchastkalari bo'lib berishda, ham sug'oriladigan ham lalmi yerlardan, uy joylari berishga to'g'ri kelmoqda. Bu o'z navbatida qolgan yerlardan unumli foydalanishga, holati yomon yerlarni ham ishlov berish yo'li orqali qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yerlar tarkibiga kiritishni talab etmoqda.

Urgut tumanida 2012 yilda jami 56353 ta oila xo'jaliklari mavjud bo'lib, ular ixtiyorida jami 7840 gektar yer maydoni bor. Bu har bir oila xo'jaligiga o'rtacha 13,9 sotix yer to'g'ri kelmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki oila xo'jaliklarining tomarqa yerlari keng yaylov yerlaridan ham iboratdir. Lekin

sug'oriladigan erladagi oila xo'jaliklarida bu ko'rsatkich juda tig'iz hisoblanadi. Shu bilan birga aholiga xizmat ko'rsatish shaxobchalari, do'konlar, maishiy obe'ktlar va boshqa tarmoqlar har bir aholi yashash joylarida ko'payib bormoqda.

Viloyat ahamiyatiga ega yo'llar atrofida restoranlar, kafe, bar, oshxona, do'konlar hamda yonilg'i qo'yish shaxobchalarining ko'payib borayotganligi ham mavjud yerlarni qisqarishiga olib kelmoqda. Bu esa tumanda mavjud yerlardan to'g'ri va oqilona foydalanishni talab qiladi. Tumanda mavjud 406 gektar meliyaretiv holati yomon yerlarni ham qishloq xo'jaligida foydalanish yerlarini ishlab chiqish va undan foydalanishni yo'lga qo'yish hozirgi kunda juda katta ahamiyatga egadir. O'z navbatida qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydonlarining, sug'orish, haydash va boshqa omillar sabab, ularning gullanishga aylanish xafi borligi yoki begona o'tlar bosib borishi sabab ham ularni ishdan chiqishiga olib kelmoqda.

#### **Urgut tumanida yer fondi va undan to'g'ri foydalanish.**

**2012 yil 1-yanvar holatida**

**3-jadval**

| №   | Tumanning er maydoni                    | Gektar | % hisobida |
|-----|-----------------------------------------|--------|------------|
| 1.  | Umumiy er maydoni. Shundan.             | 112028 | 100        |
| 2.  | Qishloq xo'jaligidagi yerlar shundan    | 74372  | 66.4       |
|     | Ekin yerlar: shu jumladan               | 20503  | 27.6       |
|     | Sug'oriladigan                          | 16461  | 80.3       |
|     | Lalmi                                   | 4042   | 19.7       |
| 2.1 | Ko'p yillik daraxtzorlar: shu jumladan. | 7754   | 10.4       |
|     | Bog'lar                                 | 469    | 6.0        |
|     | Uzumzorlar                              | 6235   | 80.4       |
|     | Tubzorlar                               | 1050   | 13.6       |
| 2.2 | Bo'z yerlar                             | 60     | 0.08       |
| 2.3 | Yaylovlar                               | 46055  | 62         |
| 3.  | Tomarqa yerlar: yer maydoni             | 7840   | 7.8        |

|    |                                |       |      |
|----|--------------------------------|-------|------|
| 4. | Meliorativ holati yomon yerlar | 406   | 0.4  |
| 5. | O'rmonlar                      | 2033  | 1.8  |
| 6. | Boshqa yerlar                  | 27377 | 24.4 |

Jadvaldan shu narsa ma'lum bo'ldiki Urgut tumanida mavjud yerlarning asosiy qismi qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlardan iboratdir va u jami yer maydonining 66,4 foizini tashkil qilmoqda. Shuning uchun ham mavjud yer resurslarini avaylab asrash, undan to'g'ri va oqilona foydalanishga jiddiy e'tibor qaratish lozimdir. Tumanda yer fondidan to'g'ri va oqilona foydalanishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

- Qishloq xo'jaligida foydalanish qiyin bo'lgan va meliorativ holati yomon bo'lgan yerlarni yaxshilab unumdorligini oshirish va undan maksimal darajada foydalanish;
- Yyerlardan foydalanishning ilg'or usullaridan, ya'ni to'g'ri sug'orish, haydash, ishlov berish o'z vaqtida, sifatli qilib olib boorish;
- Mahalliy o'g'itlarni o'z vaqtida berish, ximyoviy o'g'itlardan to'g'ri foydalanish;
- Fermer xo'jaliklari tasarufidagi yerlarni kadastr qilish, ortiqcha yer maydonlarini aniqlash va uni qishloq xo'jaligi yer fondiga kiritish;
- Aholiga tomarqa yyerlarni bo'lib berishda shu joylarning yer holatidan kelib chiqqan holda ma'lum me'yor asosida tashkil qilish;
- Erdan foydalanishda agrotexnika qoidalariga rioya qilish, uni buzilishini oldini olish, almashlab yetishni to'g'ri yo'lga qo'yish va boshqalar.

### **2.3 Qishloq xo'jalik tarmoqlari va uning joylashuvi**

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni xududiy tashkil etish va rivojlantirish har bir tumanning tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishi va uning joylanishi bilan uzviy bog'liqdir. Bu esa qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvini takomillashtirish, mehnat unumdorligini yuksaltirishda katta ahamiyatga ega.

Mustaqillik yillarida respublikamizning barcha tumanlarida bo'lgani kabi Urgut tumani qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ham tub o'zgarishlar bo'ldi. Ayniqsa yerdan unumli va maqsadli foydalanish, har gektar yerdan olinadigan mahsulotlarni miqdor va sifat jihatdan oshirish, qishloq xo'jaligi ekin yyerlarda ekiladigan ekin turlarini ko'paytirish va ularni tuman hududlariga mosligini o'rganib chiqishga e'tibor berildi. Shu sababli ham keyingi yillarda tuman qishloq xo'jalik tarmoqlarida bir qancha o'zgarishlar bo'lib, ekin turlarini ko'paytirilishi tufayli shu yerda yashovchi aholini shu mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qilmoqda.

Urgut tumanining tabiiy sharoiti va re'lef xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bu yerda qishloq xo'jalik ekinlarining ham joylashuvi hamda hududiy tarqalishi o'ziga xos bo'lib, bu erda donchilik, sabsavotchilik, kartoshkachilik va boshqa tarmoqlarga ixtisoslashgandir.

**Dehqonchilik.** Urgut tumanida dehqonchilik tarmoqlarini etishtirishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Tumanda dehqonchilik tarmoqlarining aksariyati sug'orib dehqonchilik qilinadigan yerlarga to'g'ri kelmoqda. Tumanda jami ekin yerlarning 16461 gektari yoki 80.3 foizini sug'oriladigan yerlar, qolgan 4042 gektari yoki 19.7 foizini esa lalmi yerlar tashkil qilmoqda. Tumanda dehqonchilik tarmoqlarining eng asosiy tarmoqlaridan biri don yetishtirish hisoblanadi. Tumanda tamakachilik bilan bir qatorda donchilik ham katta ahamiyatga egadir. Shunisi xarakterliki, tumanda foydalaniladigan yerlar yildan – yilga o'zgarib turadi. Bunga asosiy sabab tumanning don bilan ta'minlash talabning yildan yilga oshib borayotganligidadir. Tumanda don ekinlari asosan aholini don mahsulotlari bilan ta'minlash va em xashak bazasini yaratish maqsadida etishtiriladi. Don aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tuman statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra 2013 yil 1-yanvar holida, Urgut tumanida jami 8770 gektar yerga don ekinlari ekilib, 46261,5 tonna don hosili yetishtirishda va o'rtacha har gektar erdan 57,7 sentnerni tashkil qiladi. 2012 yilda don yetishtirish 2011 yilga nisbatan 117.7 foizga oshirildi va o'tgan yilga nisbatan 7000 tonna ko'p hosil yig'ib olingan. 2011 yilda jami 39288 tonna hosil olingan

edi. Tumanda ekilgan jami donlarning 8100 gektari yoki 92,4 foizi fermer xo'jaliklari, 7,3 foizi yoki 640 gektari dehqon xo'jaliklari va 0,3 foizi yoki 30 gektari qishloq xo'jaligi korxonalari hissasiga to'g'ri kelgan. Yetishtirilgan don mahsulotlarida ham fermer xo'jaliklarining ulushi yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Tumanda yetishtirilgan jami donlarning 88,6 foizi yoki 40974,9 tonnani fermer xo'jaliklarida 11,3 foizi yoki 5267,5 tonnasi dehqon xo'jaliklari va qolgan 0,1 foizi yoki 19,1 tonnasi qishloq xo'jalik korxonalari hissasiga to'g'ri keladi.

Tumanda don ekinlari ichida bug'doy yetishtirish alohida ahamiyatga ega. 2012 yilda jami don ekinlarining 87,4 foizi yoki 7665 gektariga bug'doy ekilgan. Ushbu yilda jami bug'doy ekilgan 7665 gektar yerdan 45076,6 tonna hosil olinib, o'rtacha har gektar yerdan 58,8 sentner hosil yetishtirilgan. Tumanda yetishtirilgan bug'doyning katta qismi fermer xo'jaliklarida yetishtirilmoqda. Tumanda ekilgan jami bug'doy maydonlarining 92,7 foizi yoki 7105 gektari fermer xo'jaliklarida, 530 gektari yoki 6,9 foizi dehqon xo'jaliklarida va qolgan 30 gektari yoki 0,4 foizi qishloq xo'jaliklari korxonalarida ekilgan. Yetishtirilgan jami bug'doyning 89,9 foizi yoki 40515 tonnani fermer xo'jaliklari, 10,0 foizi yoki 4542,5 tonnani dehqon xo'jaliklari va qolgan 0,1 foizi yoki 19,1 tonnasi qishloq xo'jaliklarida yetishtirilgan.

#### **Urgut tumanida don yetishtirish holati. (2008-2012 y.) 4-Jadval**

| Yillar | Gektar (ga) | Yalpi hosil (tonna) | Hosildorlik (sent.) |
|--------|-------------|---------------------|---------------------|
| 2008   | 8128        | 35720               | 43,9                |
| 2009   | 8230        | 369791              | 44,9                |
| 2010   | 8740        | 40822               | 46,7                |
| 2011   | 8750        | 39288               | 44,9                |
| 2012   | 8770        | 46261,5             | 52,7                |

Ushbu jadval tahlilidan shu narsani ko'rish mumkinki tumanda don yetishtirish yildan – yilga oshib bormoqda. Don ekiladigan maydonlar hajmi 2008 yilda 8128 gektar bo'lgan bo'lsa, 2012 yilga nisbatan 642 gektarga oshgan. Ushbu

o'rganilayotgan yillarda yalpi hosil yetishtirish oshib bordi va 2008 yilga nisbatan 2012 yilda 10540 tonnaga ko'payganligini hosildorlik esa gektaridan 9,2 sentnerga oshganligini ko'rish mumkin. Tumanda o'rtacha har gektar erdan olinadigan hosildorlik 2008 yilda 43,9 sentnerni tashkil qilgan bo'lsa 2012 yilda bu ko'rsatkich 52,7 sentnerni tashkil qiladi. Tumanda don ekinlari ichida bug'doyning o'zni katta hisoblanadi. Tumanda bug'doy etishtirishga ham, hosilni oshirishga ham jiddiy e'tibor berilmoqda.

**Urgut tumanida bug'doy yetishtirishholati. (2008-2012 y.) 5-Jadval**

| Yillar | Gektar (ga) | Yalpi hosil (tonna) | Hosildorlik<br>(sent.) |
|--------|-------------|---------------------|------------------------|
| 2008   | 7412        | 34290               | 46,3                   |
| 2009   | 7580        | 36340               | 47,9                   |
| 2010   | 7635        | 37280               | 48,8                   |
| 2011   | 7645        | 38502               | 50,4                   |
| 2012   | 7665        | 45077               | 58,8                   |
|        |             |                     |                        |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki tumanda bug'doy yetishtirishham yilda - yilga oshib bormoqda. Jumladan 2008 yilda jami 7412 gektar yerga bug'doy ekilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012 yilda 7665 gektarni yoki 2008 yilga nisbatan 2012 yilda 253 gektarga ko'paygan. Ushbu o'rganilayotgan yillarda hosildorlik ham oshib brogan va 2012 yilda 2008 yilga nisbatan 10783 tonnaga hosildorlik esa gektariga 46,3 sentnerdan 58,8 sentnerga oshgan. Urgut tumanida don ekinlaridan arpa etishtirishga e'tibor berilmoqda. Tumanda 2012 yilda jami 1105 gektar yerga arpa ekilgan. Ushbu ekilgan arpaning 90 foizi fermer xo'jaliklarida, qolgan 10 foizi esa dehqon xo'jaliklarida ekilgan. 2012 yilda jami 11,84 tonna arpa yetishtirilgan va o'rtacha har gektar erdan 10,7 sentnerdan hosil olingan. Umuman tumanda don ekinlari etishtirishga katta e'tibor berilmoqda. Yildan – yilga hosildorlik va yalpi hosil oshib borilmoqda. Bu esa aholini don mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishda muhim hisoblanadi.

**Sabzavotchilik.** Urgut tumanida sabzavotchilik mahsulotlari etishtirishga ham e'tibor oshib bormoqda. Shu erda yashovchi kishilarni sabzavot mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish muhimdir. Tumanning tog' va tog' oldi hududlarda shu xil mahsulotlarni etishtirishda, nisbatan qiyinchiliklar mavjudligi, er maydonlarining uncha katta emasligi sabab, bu xil mahsulotlar asosan tekislik hududlarida Tayloq tumaniga chegara hududlarida ko'p etishtiriladi. Shuning uchun sabzavot, mahsulotlariga tumanda ehtiyoj yuqori bo'lib, hatto bozorda qo'shni tumandan ham zabzavot mahsulotlari keltiriladi. Urgut tumanida sabzavot mahsulotlaridan, sabzi, piyoz, karam, shalg'om, pomidor, bodring va boshqalar etishtiriladi. Urgut tumanida 2012 yilda 1444,8 gektar yerga sabzavot mahsulotlari ekilib 98055,6 tonna mahsulot olingan. O'rtacha har gektar yerdan 678,7 sentnerdan hosil olingan. Tumanda 2011 yilda yetishtirilgan sabzavotlardan 2012 yilda ikki barovarga ko'payganligini, uni tumanda etishtirishga katta e'tibor qaratilayotganidan dalolatdir.

**Urgut tumanida sabzavotlar yetishtirishholati. (2008-2012 y.) 6-Jadval**

| Yillar | Gektar (ga) | Yalpi hosil<br>(tonna) | Hosildorlik<br>(sent.) |
|--------|-------------|------------------------|------------------------|
| 2008   | 1092,0      | 51840                  | 475,1                  |
| 2009   | 1170,7      | 53460                  | 448,4                  |
| 2010   | 1185,0      | 79370                  | 669,8                  |
| 2011   | 1277,7      | 81471                  | 637,6                  |
| 2012   | 1444,8      | 98055,6                | 678,7                  |

Ushbu jadval tahlilidan shuni ko'rish mumkinki, tumanda 2008 yilda jami 10920 gektar yerga zabzavot ekilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich yillar davomida oshib bordi va 2012 yilda 1444,8 gektarga etgan. Albatta shu sabab mavjud sabzavot maydonlaridan yuqori hosil olishga ham e'tibor berilmoqda. Tumanda 2008 yilda jami 51840 tonna sabzavot mahsulotlari yetishtirilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012 yilda 98055 tonnadan oshdi yoki 46215 tonnaga ko'p hosil olingan. Sabzavot

mahsulotlari etishtirishda dehqon xo'jaliklarining o'rni yuqori hisoblanadi. Fermer xo'jaliklarida ham zabzavot mahsulotlari ham etishtirishga keyingi yillarda katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa g'alla maydonlari bo'shagandan keyin ikkinchi ekin sifatida ayrim sabzavot mahsulotlari ekilib, undan hosil olinmoqda.

**Kartoshka yetishtirish.** Urgut tumani dehqonchilik tarmoqlari ichida kartoshkachilik ham asosiy ekinlardan birisanaladi. Bu erda mustaqillik yillaridan keyin kartoshka etishtirishga katta e'tibor berilib kelinmoqda. Kartoshka etishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari ham mavjud. Dehqon xo'jaliklarining bu boradagi ahamiyati ancha yuqori hisoblanadi. Tumanga chet davlatlardan bir qancha turdagi, ko'p hosil beradigan, kam harajat kartoshka urug'lari keltirilib ekilmoqda va undan yuqori hosil olishga erishilmoqda. Viloyatda ekiladigan barcha kartoshka maydonlarining 15 foizi Urgut tumani hissasiga to'g'ri keladi va jami ekiladigan maydon jihatidan tumanlar ichida birinchi o'rinda turadi. Tuman statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra 2012 1-yanvar holatida tumanda 1742 gektar yerga kartoshka ekilib 90099,0 tonna yalpi hosil olingan va o'rtacha har bir gektar yerdan 517,2 sentnerdan hosildorlik ko'tarilgan. Ushbu ko'rsatkichda 2011 yilga nisbatan 215 foizga o'sganligini ko'rish mumkin. Yetishtirilayotgan kartoshkaning aksariyati ikkinchi ekindan keyin ekilishi, ayniqsa g'alla maydonlarini qayta ishlab berishiga olib kelish bilan birga, uning mahsuldorligini ham oshiradi. Tumanda ekilayotgan kartoshkalarining 93 foizi dehqon xo'jaliklari, 6,9 foizi fermer xo'jaliklari va atiga 0,1 foizi esa qishloq xo'jalik korxonalari egallagan yerlarga to'g'ri kelmoqda.

**Urgut tumanida kartoshka yetishtirishholati.(2008-2012 y.) 7-Jadval**

| Yillar | Gektar (ga) | Yalpi hosil<br>(tonna) | Hosildorlik<br>(sent.) |
|--------|-------------|------------------------|------------------------|
| 2008   | 1528        | 50670                  | 331,6                  |
| 2009   | 1534        | 52570                  | 342,7                  |
| 2010   | 1692        | 54901                  | 324,5                  |
| 2011   | 1741        | 59512                  | 342,1                  |
| 2012   | 1742        | 90099,9                | 517,2                  |

Ushbu jadval tahlilidan shu narsani ko'rish mumkinki tumanda 2008 yilda jami 1528 gektar yerga kartoshka ekilgan bo'lib, o'rtacha har gektar yerdan 331,6 sentnerdan hosil olishgan yoki 50670 tonna yalpi hosil yig'ib olingan. 2012 yilga kelib esa kartoshka maydonlarini ko'paytirishga va bu turdagi mahsulotga bo'lgan ehtiyojni qondirishga jiddiy e'tibor qaratildi. 2012 yilda kartoshka maydonlari 2003 yilga nisbatan 114 foizga oshdi yoki 214 gektarga ko'paydi. 2012 yilda tumanda shu davr ichidagi eng ko'p kartoshka hosili olingan yil hisoblandi. Ushbu yilda jami 90099,9 tonna yalpi hosil olinib gektariga 517,2 sentnerni tashkil qildi. Hosildorlik ham 2008 yilga nisbatan 156 foizga oshirildi. Hatto 2011 yilga nisbatan solishtirilganda 2012 yil 30587 tonna ko'p hosil olishganligini ushbu jadval orqali ko'rishimiz mumkin. Bu o'z navbatida kartoshkachilikka ixtisoslashuvni oshib borish bilan birga uni etishtirishni intensivligiga e'tibor yanada yuqori bo'lib bormoqda.

**Bog'dorchilik va uzumchilik.** Qishloq xo'jaligida ishlab chiqishni hududiy tashkil etishda va uni rivojlantirishda har bir tumanning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlariga bog'liq. Har bir tumanning tabiiy sharoiti, yer, suv resurslari unda qishloq xo'jaligining ma'lum bir sohasining joylashtirish va rivojlantirish imkoniyatlari, mavjud sanoat va transport sharoitlaridan kelib chiqqan holda hududda yetishtirilgan mahsulotlarni iste'molchilarga va qayta ishlash korxonalariga o'z vaqtida yetkazib berishni ta'minlaydi. Urgut tumanida dehqonchilik ko'p tarmoqli bo'lib, bu yerda paxtachilik, g'allachilik, sabzavotshilik, bog'dorchilik, uzumchilik va boshqa tarmoqlardan iborat hisoblanadi. Tumanda bog'dorchilik asosiy tarmoqlardan biri sanalib, bu zaminda kishilar qadimdan bog'lar yaratib, serhosil navlarni ko'paytirib shu erning iqlimi va tuprog'iga moslashtirib kelishgan. Aholining meva mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yil sayin bog'lar maydoni kengaytirilib, intensive navli meva ko'chatlari ekilib kelmoqda. Statistika ma'lumoti bo'yicha 2011 yilda jami 1190 gektar bog'lar mavjud bo'lib, bu viloyatdagi barcha bog' maydonlarining 3,7 foizi tashkil qilmoqda. Bu erda mevalardan, ya'ni o'rikning –

ko'rsodiq, xurmon, subxon, arzami, Gulyunchi, Luchchak, maxtobi kabi navlari; olmaning – razmarin, rennet, simenko, saraton navlari, olchanning – griot, ostcheym, shpanka; shaftolining oq shaftoli, zafar, sariq nekarin, pushti napalyon; gilosning qora gilos, shampän, dragona va boshqa navlari ekilib mo'l hosil olishmoqda. Shu bilan birga yong'oq mevalardan, oq mag'iz qora mag'iz, toshloqda kabi navlari, anorning bir necha xil navlari yetishtirib kelinmoqda. Shundan kelib chiqqan holda tuman hududlarida bog'dorchilik bugungi ahvoli mavjud yer resurslari, hosildorlik va yalpi hosil ko'rsatkichlarni tahlil qilib o'rganish muhim o'ringa egadir.

Urgut tumanida bog'dorchilik qadimiy tarmoqlardan biri bo'lib, uni rivojlantirishga jiddiy e'tibor berib kelinmoqda. Chunki bog'dorchilik tumanda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan soha hisoblanadi. Tumanda 2012 yil 1 yanvar holatiga ko'ra jami 1190 gektar bog' maydonlari mavjud bo'lib, shundan 1066 gektari yoki 89 foizi hosil beradigan bog'lar tashkil qilgan, 11 foizi yoki 124 gektari yangi ekilgan, hali hosilga kirmagan kuchatlar hisoblanadi. 2011 yilga nisbatan bog'lar maydoni tumanida bir oz ya'ni 2 gektariga hosil beradigan yoshdagi bog'lar maydoni 2012 yilda 2011 yilga nisbatan 3 gektarga ko'paygan.

Tumanda 2012 yil davomida jami 12640 tonna meva mahsulotlari yig'ib olingan bu 2011 yilga nisbatan 100,6 foizga yoki 87 tonnaga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Hosildorlik ham yil sayin oshib borishiga erishilmoqda, bu qaysidir ma'noda tumanda intensiv bog'lar yaratishga va har gektar yerdan olinadigan hosilni ko'paytirishga, yerdan, suvdan unumli foydalanishga erishilmoqda. Tumanda 2012 yilda har gektar yerdan o'rtacha 118,6 sentnerdan hosil olingan bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 0,8 sentnerga oshishga erishilgan. Tumanda yetishtirilgan meva mahsulotlarini asosiy qismini fermer va dehqon xo'jaliklari etkazib bermoqda. Ayniqsa fermer xo'jaliklarida birlashish bilan birga, bog'dorchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari ham tashkil qilinmoqda, bu o'z navbatida o'sha fermer faqat bog'larda meva mahsulotlari yetishtirishga e'tibor qaratmoqda. Shu bilan birga boshqa tarmoqqa ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida ham 5-10 gektargacha bog'lar tashkil qiuligan. Keyingi yilda qishloq xo'jaligi

**Urgut tumanida meva maydonlari va yalpi hosilning 2011-2012 yildagi ko'rsatkichlari. 8-Jadval.**

| № | Xo'jalik nomi                | Barcha yoshdagilar (ga) |      | Shu jumladan hosil beradigan yoshdagi maydoni (ga) |      | Yalpi hosil (tonna) |       | Shu jumladan hosil beradigan yoshda (tonna) |       | Hosildorlik (s/ga) |       |
|---|------------------------------|-------------------------|------|----------------------------------------------------|------|---------------------|-------|---------------------------------------------|-------|--------------------|-------|
|   |                              | 2011                    | 2012 | 2011                                               | 2012 | 2011                | 2012  | 2011                                        | 2012  | 2011               | 2012  |
| 1 | Barcha xo'jalik toyifalarda  | 1188                    | 1190 | 1066                                               | 1066 | 12553               | 12640 | 12553                                       | 12640 | 117,8              | 118,6 |
| 2 | Qishloq xo'jalik korxonalari | 5                       | 5    | 5                                                  | 5    | 4                   | 10    | 4                                           | 10    | 8,0                | 20,0  |
| 3 | Fermer xo'jaliklarida        | 469                     | 470  | 360                                                | 390  | 3096                | 3162  | 3096                                        | 3162  | 86,0               | 81,1  |
| 4 | Dehqon xo'jaliklari          | 714                     | 715  | 706                                                | 708  | 9457                | 9468  | 9457                                        | 9468  | 134,0              | 133,7 |

Manba: Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

korxonalarining faoliyati tugatilishi barobarida ularning balansida bo'lgan yer maydonlari fermer xo'jaliklariga bo'lib berildi.

Shu sababli don urug'lik navlarini yetkazib beruvchi ayrim qishloq xo'jaligi korxonalarida oz miqdorda bog' maydonlari saqlanib turibdi. Shu sababli har yili qishloq xo'jaligi korxonalaridagi bog'lar maydoni qisqarib bormoqda. 2011 yilda tuman qishloq xo'jaligi korxonalari tarkibida 5 gektar bog' maydonlari qolgan bo'lib bu o'tgan yilgiga nisbatan 1 gektarga kamaygan. Ulardan bog' maydonlari jami bog'lar maydonining atiga 0,3 foizini tashkil qiladi xolos. Ushbu bog'lar 2012 yilda jami 10 tonna hosil olinib har gektar erdan 20 sentnerni tashkil qilgan. Bundan ko'rinib turibdiki qishloq xo'jalik korxonalarida yalpi hosil ham, hosildorligi ham tushib bormoqda. Shuning uchun bu yerdagi bog' maydonlarini fermer xo'jaliklariga o'tkazish kerak bo'ladi. Tuman fermer xo'jaliklarida 2012 yilda jami 470 gektar bog' maydonlari mavjud bo'lib, bu tumandagi jami bog' maydonlarining 39,5 foizini tashkil qiladi. Fermer xo'jaliklaridagi maydonlarning 390 gektari yoki 83 foizi hosil beradigan yoshdagi bog'larni tashkil qiladi. 2011 yilga nisbatan olib qaralganda bog'lar maydoni 1 gektarga ko'paygan bo'lsada, lekin hosil beradigan yoshdagi bog'lar maydoni 30 gektarga ko'paygan. Fermer xo'jaliklari o'rganilayotgan yilda jami 3162 tonna hosil yig'ib olgan bo'lib, bu tumanlarda yalpi hosilni 25 foizini tashkil qiladi. Har gektar erdan o'rtacha 81,1 sentnerdan hosil olishga erishildi. Bu ko'rsatkich 2011 yilda 3096 tonnani yoki gektardan 86 sentnerni tashkil qilgan. Tumanda aholi tomarqalarida ham meva mahsulotlari yetishtirib kelinmoqda. Bugungi kunda dehqon xo'jaliklarida ham bog'lardan mo'l ko'l hosil olinib, ichki bozorni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Tumanda 2012 yilda jami 75 gektar bog' maydonlari mavjud bo'lib, bu jami bog' maydonlarining 60,0 foizini tashkil qilmoqda. Dehqon xo'jaliklaridan mavjud bog' maydonlarining 99 foizini yoki 708 gektari hosil beradigan yoshdagi bog'larni tashkil qiladi. Buni 2011 yilga nisbatan 2 gektarga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. Dehqon xo'jaliklari tomonidan 9468 tonna hosil olinib bu jami yalpi hosilning 75 foizini tashkil qilgan. 2011 yilga nisbatan yalpi hosil 100,1 foizi yoki 411 tonnage ko'p yetishtirilgan. Dehqon xo'jaliklarida 2012 yilda har gektar bog'

maydonlaridan o'rtacha 133,7 sentnerdan hosil olingan bo'lib, bu 2011 yilga nisbatan 0,8 sentnerga pasayganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga sabab 2012 yilda erta bahorda iqlimning bir oz o'zgarishi, gullagan meva, daraxtlardan hosilning bir qismi tushib ketishi bilan hamda ayrim meva daraxtlarining yilning bir qismida ko'p hosil berishi va boshqa yilda aksincha kam hosil berishi hisobiga shunday o'zgarishga sabab bo'lgan.

Ma'lumki aholi sonini oshib borishida bevosita iste'mol maxsulotlariga bo'lgan talabning oshishiga sabab bo'ladi. Bugungi kunda aholi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga, jumladan uzum maxsulotlariga bo'lgan talabni qondirish, bozor talablari doirasida serxosil shirin, sanoatbob, polizbob uzumlarni yaratishga talab va taklifdan kelib chiqqan xolda yil davomida aholini uzum bilan ta'minlash uchun hududlar tabiiy sharoitlari va imkoniyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish ahamiyatlidir. Urgut tumanida uzumchilikning qadimiy tarmoqlaridan biri bo'lib, uni tuprog'i yetishtirilayotgan shirin – shaker uzumlar, nafaqat viloyatimizda balkim respublikamizda ham o'z xududiga egadir. Viloyatimiz ko'pgina tumanlarida bo'lgani kabi uzumchilik Urgut tumanida ham yaxshi rivojlangandir. 2013 yil 1-yanvar xolatiga ko'ra Urgut tumani viloyatda uzum ko'p yetishtiruvchi tumanlardan biri bo'ldi va 68753 tonna xosil yig'ib olishdi. Bu viloyatda yetishtirilgan jami uzumning 16,3 foizi demakdir. Tumanda har gektar yerdan o'rtacha 110,2 s/gain tashkil qilgan. Urgut tumani qishloq xo'jaligidagi yalpi daromadning 2/3 ulushini uzumchilik berdi. Tumanda uzumchilikning mayiz tayorlash yo'nalishi ham asosiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. Keyingi yillar iste'molbob va vinabob navlari yetishtirishyanada yuksalib, yetishtirilayotgan uzum turlari chetga ham export qilinmoqda. Bu yanada uzumning mayizbob navlaridan kishmish, nimrang, toyfi, muzkat, sapervani kabi navlari ko'proq yetishtiriladi. Tumanda keyingi yillarda uzum yetishtirishning ko'rsatkichlari va xo'jalikdagi ahamiyatini o'rganib chiqish muhim o'ringa egadir. Urgut tumani aholisi azaldan uzum yetishtirishga katta e'tibor berib kelgan. Aholi tarmoqlarida yetishtirilgan uzumlar asta – sekin xo'jaliklarda ham amalgam oshirilgan shu sabab o'tgan yillar mobaynida uzum yetishtirishda aholi katta tajribalarga ega

bo'lib endilikda undan mo'l – ko'l hosil olib kelmoqdaki, bu o'z navbatida aholi turmush sharoitlarini yaxshilashga, uning daromad manbaini yaxshilashga, qayta ishlash sanoat tarmoqlarini ko'paytirishga sharoit yaratib berilmoqda. Tuman xo'jaliklarida uzum yetishtirishda ixtisoslashtirishda ilmiy asosda olib boriladi bu orqali uzumni yetishtirishda ilg'or texnika usullaridan to'g'ri foydalanish asosida uni parvarishlash, yerdan to'g'ri va unumli foydalanishga olib keladi va yuqori sifatli mo'l hosil yetishtirishimkoni yaratiladi. Bundan tashqari tumanda uzumchilikni iqtisodiy foydali soxaga aylantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Buning uchun xo'jaliklarda uzumlarni yetishtirishni kengaytirish, toklarni parvarishlashni yaxshilash, mexanizatsiyadan keng foydalanish, ishlab chiqarish jarayonini ilmiy asosida to'g'ri tashkil etish, aholining moddiy manfaatlarini yaxshilash talab etiladi. Ammo har yili xo'jaliklarda o'tkazilgan ko'chatlar o'z vaqtida parvarish qilinmasligi natijasida qurib qoladi. Shuning uchun parvarishlashni yaxshilash, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashishni kuchaytirish lozim. Tumanda uzumzorlarni kengaytirish uchun irrigatsiya tarmoqlari yaxshi taraqqiy etgan, toshloq yerlar mavjud. Bunday maydonlarni o'zlashtirish uzumzorlarni anashu yerlarni o'zlashtirish xisobiga kengaytirish mumkin. Tumanda 2012 yil 1-yanvar xolatiga ko'ra jami 7571 gektar uzum maydonlari mavjud bo'lib uning 6240 gektari yoki 82 foiz xosil beradigan yerdagi uzumzorlar qolgan 18 foizni yoki 1381 gektarini yangi ekilgan, jami hosilga kirmagan ko'chatlar hisoblanadi, 2010 yilga nisbatan uzumzorlar maydoni 81 gektarga qisqargan bo'lsada, lekin hosil beradigan uzumzorlar maydoni 2011 yilda 2010 yilga nisbatan 692 gektarga ko'paygan. 2011 yilda tumanda 49232 tonna uzum maxsulotlari yig'ib olinib bu 2010 yilga nisbatan 120 foizga yoki 8389 tonnaga ko'p hosil yetishtirilganligini ko'ramiz. Tumanda 2011 yilda har gektar yerdan o'rtacha 78,9 gektariga hosil bo'lib, bu 2010 yilga nisbatan 5,3 sentnerga ko'p hosil olingan. 2010 yilda gektaridan 73,6 sentner hosildorlik yig'ishtirildi.

**Urgut tumanida uzum maydonlari yalpi hosildorligining 2010-2011-yillardagi ko'rsatkichlari. 9-jadval**

| № | Xo'jalik nomi                 | Barcha yoshdagilar(ga) |      | Shu jumladan:Hosil bo'ladigan yoshlar maydoni(ga) |      | Yalpi hosil (tonna) |       | Shu jumladan:hosil beradigan yoshda(tonna)ladi |        | Hosildorlik(s/ga) |       |
|---|-------------------------------|------------------------|------|---------------------------------------------------|------|---------------------|-------|------------------------------------------------|--------|-------------------|-------|
|   |                               | 2010                   | 2011 | 2010                                              | 2011 | 2010                | 2011  | 2010                                           | 2011   | 2010              | 2011  |
| 1 | Barcha xo'jalik tarmoqlarida  | 7632                   | 7571 | 5548                                              | 6240 | 40843               | 49232 | 40843                                          | 492232 | 73.6              | 78.9  |
| 2 | Qishloq xo'jalik tarmoqlarida | 5                      | 0    | 0                                                 | 0    | 0                   | 0     | 0                                              | 0      | 0.0               | 0     |
| 3 | Fermer xo'jaliklarida         | 6296                   | 6236 | 4216                                              | 4908 | 19980               | 28304 | 19980                                          | 28304  | 47.4              | 57.7  |
| 5 | Dehqon xo'jaliklarida         | 1331                   | 1332 | 1332                                              | 1332 | 20863               | 20928 | 20863                                          | 20928  | 156.6             | 157.1 |

Tumanda yetishtirilayotgan uzum maxsulotlarining asosiy yyerlarni fermer va dehqon xo'jaliklari etkazib bermoqda. 2011 yil jami uzum maydonlarining 82,4 foiz yoki 6236 gektari fermer xo'jaliklari, qolgan 17,6 foiz yoki 1332 gektari dehqon xo'jaliklari xissasiga to'g'ri kelgan. Hosil beradigan yoshdagi uzumzorlarda bu ko'rsatkich 80 foizga 20 foizni tashkil qilgan. Tumanda yetishtirilayotgan yalpi uzum hosilining 2011 yilda 28304 tonnasi yoki 57,5 foiz fermer xo'jaliklari xissasiga qolgan 42,5 foiz yoki 928 tonnasi dehqon xo'jaliklari hosiliga to'g'ri kelgan. Tumanda 2011 yilda har gektar erdan yetishtirilgan hosildorlikda dehqon xo'jaliklarining o'rni kattadir. chunki fermer xo'jaliklarida ishlatilayotgan o'z tomarqa maydonlari 0,5-1 gektargacha bo'lgan aholi, uchastka maydonlaridan oqilona foydalanib har sotix erdan ko'proq daromad olishga harakat qiladi. Shu sabab dehqon xo'jaliklarida hosildorlik yil sayin ortib bormoqda. 2011 yilda dehqon xo'jaliklarida har gektar yerdan o'rtacha 157,1 sentner hosil yetishgan bo'lib, bu 2010 yilga nisbatan 0,5 sentnerga yoki 101 foizga oshganligini ko'rsatish mumkin. Aholiga fermer xo'jaliklarida o'rganilayotgan yilda 57,7 sentnerdan 121,7 foizga ko'paygan. 2011 yilda 2010 yilga nisbatan hosildorlik 10,3 sentnerga ko'payganligini ko'rish mumkin.

Umuman olganda tuman fermer va dehqon xo'jaliklarida, bugungi kunda uzum yetishtirishga katta e'tibor qaratilib, yangi navli uzumlar maydonini oshirishga undan olinadigan hosildorlikni ko'paytirishga erishilmoqda. Tumanda xullas, sanoatbob, bozorbob uzum maydonlari ko'paytirilib, tuman sharoitiga mos tushadigan yangi navlar olib kelib ekilmoqdaki, bu kelajakda har gektar yerdan olinadigan hosildorlikni oshirish bilan birga aholi daromadlari ko'payishiga va ular turmush tarzini yaxshilashga olib keladi. Tumanda uzum yetishtirishning yillar bo'yicha xolatini o'rganib chiqish maqsadga muvofiqdir. Chunki shu orqali bugungi kundagi xolatga izoh berish, mavjud yer maydonlaridan qay xolda foydalana olib kelinayotganligini chuqur tahlil qilish mumkin bo'ladi.

## Urgut tumanida uzum yetishtirishning 2008-2011 yillardagi holati.

10-jadval

| № | Asosiy ko'rsatgichlar                      | 2009  | 2010  | 2011  | 2012  | 2012-yil 2009-yilga nisbati(%) |
|---|--------------------------------------------|-------|-------|-------|-------|--------------------------------|
| 1 | Barcha yoshdagi uzumzorlar(ga)             | 7568  | 7632  | 7571  | 7574  | 116                            |
| 2 | Shu jumladan hosil berish yoshdagilari(ga) | 5248  | 5548  | 6240  | 6246  | 176                            |
| 3 | Yalpi hosil(ga)                            | 50638 | 40843 | 49232 | 68753 | 314                            |
| 4 | Hosildorlik(s/ga)                          | 96.7  | 73,6  | 78.9  | 170.1 | 178                            |

Ushbu jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak Urgut tumanida 2009 yilda jami 7568 gektar uzumzorlar mavjud bo'lib, shuning 69,3 foiz yoki 5248 gektari hosil beradigan yoshdagi uzumlarni tashkil qiladi. Maskur yilda jami 50628 tonna hosil olinib o'rtacha har gektariga 96,7 sentnerga to'g'ri kelgan. 2010 yilda tokzorlar maydoni 2009 yilga nisbatan 64 gektarga ko'payib 7632 tonnani tashkil qildi. Lekin hosil beradigan yoshdagi tokzorlar 2009 yilga nisbatan 300 gektarga ko'paydi va 5548 gektarni tashkil qildi. Tokzorlarga e'tiborni kuchaytirilishi, iqlimni yaxshi bo'lishi evaziga 2009 yilda 50628 tonna hosil olindi yoki 2010 yilga nisbatan 9785 tonnaga ko'p hosil olingan. Shu bilan birga, har gektar erdan olinadigan hosildorlik ham oshib 2009 yilda 96,7 s/ga tashkil qildi. Tumanda 2011 yildan boshlab tokzorlar maydoni ancha ko'paydi, shu bilan birga unda amaldagi hosilga ham katta e'tibor qaratildi. 2011 yilda tumanda tokzorlar maydoni 7571 gektarni tashkil qilib bu 2009 ga nisbatan 3 gektarga ko'paytirildi. Shu bilan birga 2-3 yerga ekilgan toklar hosil bera boshladi va maskur yilga kelib, hosil beradigan yoshdagi tokzorlar maydoni 62,40 gektarni tashkil qildi va 2009 yilga nisbatan 892 gektarga ko'paydi. Ushbu yilda jami 49322 tonna hosil olishib har gektar yerdan

o'rtacha 789 sentnerni tashkil qilgan. Agar ushbu ko'rsatkichni o'tgan 2009 yil bilan taqqoslaganda qariyb 17,8 foizga kam hosil olganligini ko'rishimiz mumkin. 2012 yilda esa tumanda har gektar yerdan olinadigan hosildorlik ham ko'paydi. Buning asl sababi barcha xo'jaliklarda tokzorlarda berilgan ishlovlar, mineral o'g'itlardan azot, fosfor, kaliy va maxalliy o'g'itlardan o'z vaqtida foydalanish bilan birga, tokzorlarni tez kasalga chalinib qolmasligini oldini olish uchun ximikatlarni bilan dorilab turish ishlarini o'z vaqtida olib borilayotganligi tufayli erishilmoqda.

**Tamakiçilik.** Mamlakatimiz mustaqillik yillarining boshlarida qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritish hsakli jamoa xo'jaliklari tarkibida edi. 1995 yildan boshlab respublikamiz hukumati mamlakatimiz iqtisodiyotining eng muhim tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini shakllantirish mumkinligining nodavlat shakllariga o'tish davlat tasavuridan chiqish va xususiylashtirish dehqon va fermer xo'jaliklar faoliyatini yo'lga qo'yish kabi masalalarini hal qilishga e'tibor berdi. Bugungiuda qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritish hsakllaridan biri fermer xo'jaliklari muhim o'rin egallaydi. Ular xo'jalik yuritishning shaxsiy manfaatdorlik, tashabbuskorlik mulkka egalik qilish, mulkiy javobgarlik tamoyillariga tayanib, tarmoqda mulk shakllarininf teng xuquqli va sog'lom raqobat muhiti asosida rivojlanib borishga asoslanadi. Hozirda viloyatimizda shu jumladan Urgut tumanida xo'jaliklarida mustaqil rivojlanishlari uchun barcha tashkiliy, huquqiy iqtisodiy hsart-sharoitlar yaratib berilgan.

O'zbekiston respublikasi prezidentining 2006-2010 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirishni qo'shimcha chora tadbirlarini ishlab chiqishga doir farmonining qabul qilishi fermer xo'jaliklarining son va sifat jixatidan yanada o'sib, rivojlanishlari uchun mustahkam zamin yaratib berdi. Albatta bu farmon fermerlar uchun qator imkoniyatlar, qulayliklar yaratib berishi bilan bir qatorda, ularni ma'suliyatiga samarali mehnat qilishiga undaydi.

Bu farmonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning bozor tamoiillariga javob beradigan texnologiyalari hamda moliyalashtirishning uslub va shakllarini tanlashda moliyaviy mablag'lardan foydalanishda fermer

xo'jaliklarining mustaqilligini ta'minlashda, fermer xo'jaliklarini ehtiyojlariga qarab, barcha zarur xizmatlarni ko'rsata oladigan zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalarini yaratish va rivojlantirish, tanlovi asosida fermer xo'jaliklarini tashkil etish, kamida 3 yil zarar bilan ishlayotgan fermer shartnomani bekor qilish va tarqatib yuborish ular faoliyatiga har qanday noo'rin aralashlarga yo'l qo'ymaslik, fermerlarning huquqiy ishlariga yo'l quymaslik, fermerlarning huquqiy va iqtisodiy bilimlarini oshirish uchun joylarda shart sharoitlar yaratib berish ko'rsatilgan. Fermer manfaati yo'lida qabul qilingan qonunlar farmonlar va me'yoriy xujjatlar qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklarining rivojlanishiga zamin yaratadi. Urgut tumanida fermer xo'jaliklarining rivojlanish jarayonlarini 2007 yil ma'lumotlari bilan 2008 yil taqqoslanganda fermer xo'jaliklarining soni 2,5 barobarga kamayganligi yoki 2011 yilda 789 ta bo'lib qolganligini ko'rishimiz mumkin. O'rtacha har bir fermerga to'g'ri keladigan er maydoni ham 2,5 barobar oshirib 2008 yilda 9,2 gektar bo'lgan bo'lsa 2011 yilda 22,9 gektarini tashkil qilgan. Ularda ishlovchilar soni 6900 kishidan 26645 yoki 19745 kishiga ortgan.

Yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi fermer xo'jaliklarining ulushlari 2004 yilda 16,2 foizni, 2008 yilda 20 foizni, 2010 yilda esa 21,6 foizni tashkil qildi. 2011 yil 1-yanvar holatiga ko'ra tumanda jami 789 ta fermer xo'jaliklari mavjud bo'lib shundan 469 ta fermer tamaki yetishtirishga ixtisoslashgandir. Tumanda tamaki bilan shug'ullanuvchi 24 ta agro firmalar mavjud va ular 469 ta fermerlarni o'zida birlashtirgan. Agrofirmalar qatoriga Navoiy va Ulug'bek agrofirmalar tarkibida 42 va 33 ta fermer xo'jaliklari bor.

Dehqonobod agrofirmalarida 21 ta,

Qayroqlida agrofirmalarida 20 ta,

G'ijduvonda 20 ta, Navoiyda 29 ta, O.Uzoqov va Jartepa agrofirmalarda 25 tadan eng ko'p fermer xo'jaliklari tuzilgan.

Jami 24 agrofirmalardan «Izmir» navli tamaki, 9 ta agrofirmalarda «Basma» va 10 ta agrofirmalarda «Dyuhek» navli tamaki yetishtirishga ixtisoslashgan. Tumandagi tamaki yetishtiruvchi 469 fermer xo'jaliklaridan 290 tasi «Izmir»

navini 96 tasi «Basma» navli va 83 ta fermer xo'jaliklari «Dyuhek» navli tamakilar yetishtirib kelmoqda.

**Urgut tumani fermer xo'jaliklarida tamaki yetishtirishning holati.**

**(2011-1-yanvar holatiga)**

**11- jadval.**

| Ko'rsatkichlar<br>mavzusi | O'lchov<br>birligi | 2007 | 2008  | 2009  | 2010 | 2010-yil<br>2007-yilga<br>nisbatan(%)<br>hisobida |
|---------------------------|--------------------|------|-------|-------|------|---------------------------------------------------|
| Ekin maydoni              | ga                 | 6165 | 7322  | 7360  | 7595 | 123.2                                             |
| Hosildorlik               | s/ga               | 12.2 | 14.3  | 14.4  | 11.6 | 95.1                                              |
| Yalpi hosildorlik         | Tonna              | 7504 | 10465 | 10600 | 8829 | 117.6                                             |

Yuqoridagi jadval ta'limi shuni ko'rsatadiki tuman fermer xo'jaliklarida 2007 yilda jami 6165 gektar erga tamaki ekilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2010 yilga kelib 7595 gektarga yetgan yoki 1432 gektar yer maydoni qo'shimcha maydoni ekish uchun ajratilgan. Bundan ko'rinib turibdiki tumanda tamaki maydonlarini ko'paytirishga katta e'tibor berilmoqda. Hosildorlik gektaridan 2007 yilda 12,2 sentnerni tashkil qilsa, 2010 yilda bir oz kamaygan va gektaridan o'rtacha 11,6 sentnerga yetgan. Aksincha 2007-2009 yillarda har gektar yerdan o'rtacha 14,3-14,4 sentnerdan hosil olishga ham erilishgan. Tamakining yalpi hosili o'rganilayotgan davrlarda biroz farq qiladi 2007 yilda 7504 tonna tamaki yetishtirilgan bo'lsa bu 2010 yilda 8829 tonnani tashkil qilgan. Bu borada 2008-2009 yillarda 10300 tonnadan ortiq hosil olingan. Albatta buni bir qancha sabablari bor. Biz yuqoridagi boblarimizda aynan tamaki navlarining hosildorlik darajasi turlicha ekanligiga e'tibor qaratgan edik. Shu jihatdan oladigan bo'lsak tuman fermer xo'jaliklarida "Izmir" navi ko'p ekilmoqda.

"Izmir" va "Basma" navlari Dyuhekga qaraganda hozildorlik darajasi past bo'lsada, lekin sharq tipidagi tamaki hisoblanib bu ichki va tashqi xaridorlar talabini qondiradigan dunyo bozoridan raqobat bardosh tamaki mahsulotlari

hisoblanadi. Shu sababli ham maskur navdagi tamakilar ekilishiga va undan yuqori hamda sifatli mahsulotlar yetishtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

**Urgut tumani fermer xo'jaliklarida yetishtiriladigan tamaki navlarining holati**

12-jadval

| № | Ekinlar nomi | 2008 y         |                   |                   | 2009 y         |                   |                   | 2010 y.        |                   |                   |
|---|--------------|----------------|-------------------|-------------------|----------------|-------------------|-------------------|----------------|-------------------|-------------------|
|   |              | Ekin maydon ga | Hosil dorlik s/ga | Yalpi hosil tonna | Ekin maydon ga | Hosil dorlik s/ga | Yalpi hosil tonna | Ekin maydon ga | Hosild orlik s/ga | Yalpi hosil tonna |
| 1 | Izmir        | 4217           | 8.2               | 3450              | 4780           | 8.3               | 3552              | 5007           | 8.0               | 4006              |
| 2 | Basma        | 695            | 10.0              | 695               | 760            | 10.8              | 8021              | 1074           | 10,0              | 1074              |
| 3 | Dyubek       | 2410           | 26.2              | 6320              | 2320           | 26.8              | 6227              | 1516           | 24.7              | 3749              |
| 4 | Jami         | 7322           | 14.3              | 1060              | 14.4           | 10600             | 7595              | 11.6           |                   |                   |

Yuqoridagi jadvalni tashkil qiladigan bo'lsak tuman fermer xo'jaliklarida 2007 yilda jami 4217 gektar yerga "Izmir" navli tamaki ekilgan bo'lsa bu ko'rsatgich 2010 yilda 5007 gektarni tashkil qilgan yoki 790 gektarga ko'paygan jami tamaki ekin maydonlarining 66 foizga "Izmir" ekilgan. "Basma" tamaki navlari maydonlari o'rganilayotgan yoki 375 gektar ko'paygan. Jami tamaki ekin maydonlarining 14,1 foizga "Basma" ekilmoqda. "Dyuhek" tamaki navlari maydonlari o'rganilayotgan davrda 2410 gektardan 1516 gektarga tushib ketgan yoki 894 ga kamaygan. Jami ekin maydonlari tarkibida "Dyuhek"ning ulushi 19,9 foizni tashkil qilmoqda "Izmir"ning yalpi hosili yil sayin oshib bormoqda 2008 yilda jami 3410 tonna yetishtirilgan bo'lsa 2010 yilda 4006 tonnaga yetgan yoki 516 tonnaga ko'paygan. Xuddi shunday "Basma" yetishtirishga ham katta e'tibor berilmoqda 2008 yilda 695 tonna tonna hosil yetishtirilgan bo'lsa 2009 yilda 1074 tonnani yoki 379 tasiga oshgan. Yuqoridagi jadval ta'limi shuni ko'rsatadiki Urgut tumani agrofimlarida tamaki navlari yetishtirishasosan ularning joylashgan hududlariga sug'oriladigan va lalmi yer maydonlariga ekilishi hisobiga uni yetishtirishda aynan tumanning sug'oriladigan maydonlari ko'p bo'lgan

xo'jaliklarida fermer xo'jaliklarida ekiladi.Ushbu nav tipiga bir necha navlar kiradi ya'ni "Dyuhek 2898" , "Dyuhek" 44-07 navi kabilar.Tumanning Mehnatobod va Mo'minobod agrofimalarga qarashli 27 ta fermer xo'jaliklarining barchasi "Dyuhek" navli tamaki yetishtirishga ixtisoslashgan.Bundan tashqari H.Mo'minov, Jartepa, Akromobod, Yangi ariq, Navro'z, Bobur, Samarqand, Qayroqli va Oxunboboyev nomli agrofimalar qarashli ayrim fermer xo'jaliklarining bir qismi Dyuhek navli tamaki yetishtirishsa qolganlari Izmir va Basma navli tamaki yetishtirishga ixtisoslashgan.Tumanda Jartepa, Vatkan, Baxrin, Yangi ariq, Navro'z, Bobur, Samarqand va Qayroqli, Oxunboboyev nomli agrofimalarning fermer xo'jaliklarida "Basma" tamaki navlari eng ko'p yetishtiriladi."Izmir" tamaki naviga to'liq ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari asosan lalmi va qisman sug'oriladigan yer maydonlariga egadir.

Tumanning Ulug'bek, Ittifoq, Navoiy, Oqqo'rg'on, G'ijdivon, Taroqli, Dehqonobod, Raximov, Uzuqov va Jo'raptepa agrofimalariga qarashli 311 ta fermer xo'jaliklari faqat "Izmir" tamaki navi yetishtirishga ixtisoslashgan va uni yetishtirmoqda qolgan ayrim agrofimalarda ham "Dyubek" "Izmir" va "Basma" navlari aralash holda joylarning holatiga qarab tuproq stukturasi,suv ta'minotini hisobga olgan holda fermer xo'jaliklarida yetishtirib kelinmoqda."Izmir,,navi yetishtirishda tumandagi Taroqli va R.Rahimov agrofimalarida tamaki yetishtirish gekraridan 9 sentenerga tashkil qilmoqda va shu yo'qori ko'rsatishga egadir.

**Urgut tumani fermer xo'jaliklarida tamaki navlarining yetishtirish holati (2010-yil 1-yanvar holat ) 13-jadval**

| №  | Agro fermalar nomi | Fermer xo'jaliklari soni |                |             |                                  |                      |                      |          |                         |             |          |       |                      |                      |
|----|--------------------|--------------------------|----------------|-------------|----------------------------------|----------------------|----------------------|----------|-------------------------|-------------|----------|-------|----------------------|----------------------|
|    |                    |                          | Maydonga<br>ga | hosildorlik | Yalpi hosil<br>tonna<br>mavdonga | Hosildorli<br>k f/ga | Yalpi<br>hosildorlik | maydonga | hosil tonna<br>maydonga | Yalpi hosil | maydonga |       | Hosildorli<br>k s/ga | Yalpi hosil<br>tonna |
| 1  | Mehnatobod         | 17                       | 191.4          | 25.0        | 478.4                            |                      |                      |          |                         |             | 191.4    |       | 25.0                 | 478.4                |
| 2  | Ulug'bek           | 53                       | 809.4          | 8.0         | 647.5                            | 809.4                | 8.0                  | 647.5    |                         |             |          |       |                      |                      |
| 3  | Ittifoq            | 6                        | 92             | 7           | 64,4                             | 92                   | 7                    | 64.4     |                         |             |          |       |                      |                      |
| 4  | Navoiy             | 39                       | 525.6          | 8.0         | 420.5                            | 525.6                | 8.0                  | 420.5    |                         |             |          | 65.7  | 22.0                 | 144.6                |
| 5  | X.Muminov          | 22                       | 127.0          | 15.2        | 193.6                            | 61.3                 | 8.0                  | 49.0     |                         |             |          |       |                      |                      |
| 6  | Jartepa            | 62                       | 641.8          | 16.6        | 1063.4                           | 53.8                 | 7.0                  | 37.9     | 296.3                   | 10.0        | 296.3    | 291.7 | 25.0                 | 729.2                |
| 7  | Oqqo'rg'on         | 17                       | 178.7          | 7.0         | 125.1                            | 178.7                | 7.0                  | 125.1    |                         |             |          |       |                      |                      |
| 8  | G'ijdivon          | 40                       | 284.3          | 8.0         | 227.5                            | 284.3                | 8.0                  | 227.5    |                         |             |          |       |                      |                      |
| 9  | Akromobod          | 23                       | 304.3          | 9.7         | 294.8                            | 266.3                | 7.9                  | 211.2    |                         |             |          | 38.0  | 22.0                 | 83.6                 |
| 10 | Taroqli            | 16                       | 239.6          | 9.0         | 215.6                            | 239.6                | 9.0                  | 215.6    |                         |             |          |       |                      |                      |
| 11 | Dehqonobod         | 41                       | 681.4          | 8.0         | 545.1                            | 681.6                | 8.0                  | 545.1    |                         |             |          |       |                      |                      |
| 12 | Vatkan             | 31                       | 304.5          | 9.4         | 286.8                            | 88.4                 | 8.0                  | 70.7     | 216.1                   | 10.0        | 216.1    |       |                      |                      |
| 13 | Yangiariq          | 27                       | 308.2          | 8.9         | 301.8                            | 274.5                | 8.0                  | 219.6    | 51.4                    | 10.0        | 51.4     | 12,3  | 25.0                 | 30.8                 |
| 14 | Bahrin             | 21                       | 261.8          | 9.9         | 260.                             | 13,6                 | 9.0                  | 12.2     | 248.2                   | 10.0        | 248.2    |       |                      |                      |
| 15 | Navro'z            | 7                        | 43.8           | 10.8        | 47.2                             | 33.4                 | 8.0                  | 26.7     | 2.0                     | 10.0        | 2.0      | 8.4   | 22.0                 | 18.5                 |
| 16 | K.Rahimov          | 29                       | 482.9          | 9.0         | 434.6                            | 482.9                | 9.0                  | 434.6    |                         |             |          |       |                      |                      |

|    |                |     |       |      |       |       |     |       |       |      |       |       |      |       |
|----|----------------|-----|-------|------|-------|-------|-----|-------|-------|------|-------|-------|------|-------|
| 17 | O.Uzoqov       | 35  | 472.7 | 8.4  | 399.2 | 457.7 | 8.0 | 366.2 |       |      |       |       |      |       |
| 18 | Bobur          | 28  | 358.0 | 11.8 | 305.4 | 12,0  | 8.0 | 9.6   | 212.8 | 10.0 | 212,8 | 33,2  | 25.0 | 83.0  |
| 19 | Samarqand      | 26  | 244.7 | 23.4 | 572.8 | 17.0  | 8.2 | 14.0  | 7.0   | 10.0 | 7.0   | 220.7 | 25.0 | 551,8 |
| 20 | Jurabtepa      | 35  | 469.2 | 8.0  | 375.4 | 469.2 | 8,0 | 375.4 |       |      |       |       |      |       |
| 21 | Qayroqli       | 40  | 409.8 | 23.2 | 951.0 | 8.0   | 9.0 | 7.2   | 40.5  | 10.0 | 40.5  | 361.3 | 25.0 | 903.3 |
| 22 | Oxunboboyev    | 34  | 270.0 | 24.8 | 669.0 |       |     |       | 4.0   | 10.0 | 4.0   | 266.0 | 25.0 | 665.0 |
| 23 | Mo'minobod     | 10  | 109.0 | 8.8  | 95.6  | 103.0 | 8.0 | 82.6  |       |      |       | 6.0   | 22.0 | 13.2  |
| 24 | Tuman bo'yicha | 659 | 759.7 | 11.6 | 88.2  | 500.7 | 8.0 | 400.6 | 1074  | 10.0 | 1074  | 15.1  | 24.7 | 3749  |

Ammo Ittifoq, Oqqurg'om agrofirmalardagi fermer xo'jaliklari o'zida 7.0 s/ga hosildorligini oshirmoqda."Basma" navi tamakining hosildorligi "Izmir" tamaki naviga qaragan beros yo'qoridir. Tumanda "Basma" tamaki navi yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari hozirda har bir gektaridan o'rtacha 10 sentnerni tashkil qilmoqda.

"Dyubek" yo'qori hosildorlik darajasiga ega bo'lib tumandagi 7ta agrofimlar tarkibidagi fermer xo'jaliklarida hosildorlik 25 sentnerga yetgan bo'lsa qolgan 4 ta agrofimlar tarkibidagi fermer xo'jaliklarida hosildorlik 22 sentnerga yetmoqda.Quyida Urgut tumani fermer xo'jaliklarini "Dyubek" va "Izmir" tamaki navlari hosildorligi bo'yicha guruhlash me'yorini berilmoqda.

Tumandagi mavjud xo'jaliklar uzoq yillar mobaynida tamakining "Dyubek" navini yetishtirib kelganlar.Shunday bo'lishiga qaramasdan bu nav bo'yicha hosildorlik ancha tabaqalashgan.Raqamlar shuni tasdiqlaydiki hosildorlikning oshib borishi mehnat unumdorligining ham oshishi bilan bir vaqta yuz bergan bo'lib ,uning zahirida dehqonchilik tizimi talablariga amal qilishdik muhim ilmiy mutanosiblik yotadi.Bu esa o'z navbatida mahsulot tamakining pasayishiga olib keladi.Jumladan tamaki hosildorligi 10,8 sentnerni tashkil etgan 9ta fermer xo'jalikda mehnat unumdorligi 0.371 sentner(kishi kunini va 1s mahsulot tannarxi 177.2ming tonnani tashkil qilgan bo'lsa,hosildorligi 25,3 s bo'lgan 7ta fermer xo'jaliklarida mehnat unumdorligi qariyb 2 barobarga ortiq,1s mahsulot tamaki 122,8 ming so'mga yoki 29,5% ga pastdir. Lekin bu nav bo'yicha sotish baholari darajasi ancha past bo'lganligi uchun 1 sentner, uchun o'rtacha 111-142 ming so'm barcha xo'jaliklar faoliyati zarar bilan yakunlangan. Zararlilik darajasi 2 barobarga tafovut qiladi.takidlanganidek "Izmir" tamaki navining hosildorligi "Dryubek" naviga nisbatan pastroq bo'lib,uni yetishtiradigan 1ta xo'jalikda tafovut bor yo'g'i 2.7 s/ga ni yoki 33.7%ni tashkil qiladi.Bu navda hosildorlikning oshishida har xil mehnat unumdorligi darajasida olingan.

**Tamaki hosildorligi bo'yicha guruhlash va unung samaradorlikka ta'siri (2008-2011-yil) 14-jadval**

